

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan ● 2023-yil 18-avgust, №33 (3043)



BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/mv_vatanparvar_uz

instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**O'ZBEKISTON-
QOZOG'ISTON:**

**MAXSUS-TAKTIK
O'QUVLAR
MUVAFFAQIYATLI
YAKUNLANDI**



2-3

**KUCH, SABOT
VA MATONAT**



Avgust... Yoz faslining oxirgi kunlari o'tib bormoqda. Ob-havo esa hali issiq va quruq. Shunga qaramay, harbiy xizmatchilar har qanday vaziyatda ham yurt tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimiz osoyishtaligini mustahkam qo'rg'ondek himoyalash, kasbiy malaka va mahoratini yuksaltirish, jangovar tayyorgarligini oshirishni bir zum ham to'xtatgani yo'q.

5

Yuksak

parvozlarda

zamindan

boshlanadi



www.mv-vatanparvar.uz



O'zbekiston mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov boshchiligidagi harbiy delegatsiya Qozog'iston Respublikasidagi Aqtau shahriga tashrif buyurdi. Qozog'iston mudofaa vaziri general-polkovnik Ruslan Jaqsiliqov bilan o'zaro suhbat davomida qardosh xalqlar hamkorligida erishilayotgan yutuqlar va yaqin do'stona munosabatlar o'zbek-qozoq aloqalarini yangi strategik sherikchilik bosqichiga ko'tarayotgani qayd etildi. Shuningdek, tomonlar jangovar tayyorgarlik, harbiy ta'lim va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi munosabatlarning bugungi holati va istiqbollarini muhokama qildi.

O'ZBEKISTON-

MAXSUS-TAKTIK O'QUVLAR



Tashrif davomida harbiy delegatsiya "Oymasha" poligonida o'tkazilgan O'zbekiston va Qozog'iston Qurolli Kuchlari maxsus bo'linmalari hamkorligidagi maxsus-taktik o'quvlarni bevosita kuzatdi.

Dastlab har ikki davlatning mudofaa vazirlari harbiy poligon bo'ylab harbiy xizmatchilarning 10 dan ortiq o'quv nuqtasida o'tkazayotgan maxsus-taktik mashqlarini kuzatdi, bevosita unda ishtirok etdi va jangovar qurollardan o'q uzdi.

O'quv rejasiga muvofiq, harbiy xizmatchilar tezkor kuch va vositalar bilan hamkorlikda shartli dushmanni yo'q qilish bo'yicha harakatlarni boshladi. Maxsus bo'linmalar uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalangan holda, razvedka-qidiruv harakatlarini olib borib, terrorchi guruhlar joylashgan hududni aniqladi.

Shundan so'ng shartli dushman joylashgan hudud o'qqa tutildi. Maxsus bo'linmalar zamonaviy qurolli mojarolar tajribasidan kelib chiqqan holda, yangi taktik usuldan foydalanib, hamkorlikda yaqin masofada jang qildi. Bunda belgilangan vazifani bajarish vaqtida olovli qo'llab-quvvatlov guruhiga zirhlangan texnikalar hamrohlik qildi va shartli dushman batamom yer bilan yakson etildi.





QOZOG'ISTON:

MUVAFFAQIYATLI YAKUNLANDI



Shundan so'ng mehmonlar Aqtau shahrida joylashgan harbiy qismdagi sharoitlar bilan yaqindan tanishib, navbatdagi manzil, ya'ni dengiz flotidagi qo'shinlarning kemani qo'lga olish va hujum qilish bo'yicha taktik mashg'ulotlarni kuzatdi.

Kunning ikkinchi qismida o'quv rejasiga ko'ra, tungi sharoitda batalyon taktik guruhlarining o'quv mashg'uloti ham o'tkazilib, hamkorlikdagi jangovar harakatlarni kuzatish bilan birga, batalyon komandirlarining qarorlari tinglandi. Xususan, batalyon taktik o'quvlarida topshiriqlarni bajarish, qurol-yarog' va harbiy texnikaning eng zamonaviy namunalarni qo'llash, aviatsiya yordamida umumqo'shin bo'linmalariga madad berish, o'tish qiyin bo'lgan tog'li va cho'l hududlarida, shahar sharoitlaridagi maxsus operatsiyalar, bo'linmalarni qo'llab-quvvatlash mashg'ulotlarini o'z ichiga oldi.

Mashg'ulotlar yakunida mudofaa vazirlari harbiy xizmatchilarning jangovar qobiliyatlarini yuqori baholab, har ikki davlatning harbiy xizmatchilariga jangovar hamdo'stlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun ko'krak nishonlarini topshirdi.

Katta leytenant Otabek NORBOYEV,
III darajali serjant Olim BERDIYEV
 Toshkent – Aqtau – Toshkent

JANGOVAR TAYYORGARLIK SINOVDAN O'TDI

Harbiy okrugimizda bo'linmalarning jangovar salohiyati va qobiliyatini yuksaltirish, ularning mo'ljallanishi bo'yicha jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash, shaxsiy tarkibning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida egallagan bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan tekshiruv harbiy xizmatchilar uchun haqiqiy sinovga aylandi.



Bugungi davrda professional harbiy xizmatchilarga qo'yilayotgan talablar tufayli jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tubdan yangilanib, qo'shinlar tayyorgarligiga samarali joriy etilmoqda.

Tekshiruv davomida harbiy qism mansabdor shaxslarining jangovar-xizmat faoliyatini tashkillashtirishga oid rahbariy hujjat talablariga rioya etilishi, bo'linmalarning harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan butlanganligi, ularning jangovar shay va soz holatda saqlanayotgani kabi mezonlar ham inobatga olindi. Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik

mashg'ulotlarini o'tkazish uchun yaratilgan o'quv-moddiy baza ko'rikdan o'tkazilib, harbiy xizmatchilardan jangovar tayyorgarlik fanlaridan sinovlar qabul qilindi.

Shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi, jismoniy va ruhiy yuklamalarni sabot bilan yengishi, jangovar vazifalarni bajarishga shayligini Shimoli-g'arbiy harbiy okrug boshqaruv apparati ofitserlaridan iborat hay'at a'zolari tekshirdi. Amaliy mashg'ulotlar kunduzgi va tungi sharoitlarda bajarilib, harbiy xizmatchilarning ko'nikmalari murakkab sinovlarda baholab borildi.

Bugun Mudofaa vazirligi tomonidan yuqori bo'g'indagi harbiy bo'linmalarga emas, balki quyi pog'onadagi guruh, vzvod va batalyonlarga bo'lgan alohida e'tibori sabab ushbu bo'linmalarning ta'minoti, jangovar tayyorgarligi va shayligi yuksalishiga erishilyapti. Batalyonlarda sog'lom raqobat muhiti yanada shakllantirilib, bo'linma komandirlarining liderlik va boshqaruvchanlik qobiliyati yuksalmoqda.

**Kichik serjant
Abdullajon UMARALIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**



KUCH, SABOT VA MATONAT

Avgust... Yoz faslining oxirgi kunlari o'tib bormoqda. Ob-havo esa hali issiq va quruq. Shunga qaramay, harbiy xizmatchilar har qanday vaziyatda ham yurt tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimiz osoyishtaligini mustahkam qo'rg'ondek himoyalash, kasbiy malaka va mahoratini yuksaltirish, jangovar tayyorgarligini oshirishni bir zum ham to'xtatgani yo'q.

Bugun milliy armiyamizga qaratilayotgan e'tiborga javoban harbiy xizmatchilar qo'yilgan har qanday jangovar vazifalarni to'la-to'kis ado etishga qodir, desak, adashmaymiz. Bo'linmalarda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari boshchiligida o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlarda ko'rsatilayotgan natijalar fikrimizning yaqqol isboti.

"Chirchiq" dala-o'quv maydonida desantchilar harbiy qismi shaxsiy tarkibining jangovar shayligi va jipsligini tahlil qilish va baholash, shuningdek harbiy qismlar, harbiy texnika va qurol-aslahalarning o'quv-jangovar vazifalarni bajara olishga tayyorligini nazoratdan o'tkazish maqsadida sinov mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.

Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni hamda Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi mas'ullari boshchiligida o'tgan mazkur sinovlar harbiy xizmatchilarga qo'yilgan vazifalarni jipslikda bajarishga tayyorligini tekshirishga qaratilgani bilan oldingilaridan farqli bo'ldi. Yig'in davomida amaliy mashg'ulotlarga ko'proq urg'u berilib, otish tayyorgarligi, harbiy mojarolar davrida bo'linmalarni qo'llash tajribalari, niqoblanish, qo'l jangi, aloqa tayyorgarligi, tosh ko'tarish, saf ko'rigi, zirhli texnikalarga qarshi qurollar, front orti ta'minoti kabi bir qancha yo'nalishlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, ularning bilim va ko'nikmasi baholandi.


Kundalik rejaga asosan kuch, tezlik, matonat kabi sifatlarni toblovchi jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlariga yuqori darajada hozirlik ko'rilgani amaliyotda yana bir karra o'z isbotini topdi.

Shuningdek, rejaga muvofiq, kun tartibidagi asosiy mashg'ulotlar turli o'quv nuqtalarida davom etdi. Xususan, yurt posbonlari zirhli texnikalarda harakatlanish, maxsus texnikalar yordamida ko'prik o'rnatish, jangovar zirhli texnikani turli manyovrchanlik xususiyatlariga ko'ra boshqarish, jangovar qurollardan o't ochish kabi me'yorlarni bajarishda ishonchli harakatlarni amalga oshirdi. So'ng mashg'ulotlar tunda, ko'rish imkoniyati cheklangan vaqtda o'tkazildi. Bunda harbiylarning xotirasi, ularning ruhiy barqarorlik holati va murakkab sharoitda topshiriqlarni bajarish ko'nikmalari yanada mustahkamlandi.

Mazkur sinov yurt posbonlarining jangovar tayyorgarligi, ularning komandirlik boshqaruvi hamda favqulodda holatlarda to'g'ri va aniq harakatlanish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Kasbiy mahorat, iroda mustahkamligi mana shunday qiyin mashqlarda, murakkab vaziyatlarda toblanadi, sayqallanadi va natijada yuksaklikka erishiladi.



Muallif suratiga olgan



MUAMMOLARGA IJOBIY YECHIM

Bugungi kunda har qanday tashkilotning oliy maqsadi xalqqa xizmat va aholi vakillarini rozi qilishdan iborat. Ularning turmush darajasini yaxshilash, hayotida uchrayotgan muammolarni bartaraf etish yurtimizda olib borilayotgan odil siyosatning asosiy tamoyiliga aylangan. Bu kabi ishlarning samarasi o'laroq tashkil etilgan sayyor qabullar ham murojaatlarni tinglash, muammolarni ijobiy hal qilishga bag'ishlangan.



Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyevning navbatdagi sayyor qabuli ham ochiq va shaffof tarzda bo'lib o'tdi. Muammolarni ijobiy hal etish maqsadida qabulda mas'ul harbiy xizmatchilar hamda ularning oilalari bilan ishlash bo'limi vakillari ishtirok etdi.

Qabul jarayonida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan 70 ga yaqin murojaatdan 50 tasi joyida ijobiy hal etildi. Qolganlari yuzasidan huquqiy maslahatlar berilib, hal etilishi kerak bo'lgan murojaatlarga tegishli muddatlar belgilandi hamda mas'ullarga vazifalar yuklandi.

Fuqarolar sayyor qabul mobaynida yuridik, tibbiy xizmat va uy-joy masalalari bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob oldi.

Sh. EGAMBERDIYEV

INSON QADRI UCHUN

HARBIYLAR EL XIZMATIDA

Hisor tog' tizmalari etagida viloyat markazi Termizdan 200 km uzoqda joylashgan Sariosiyo va Uzun tumanlari aholisi uchun Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tashabbusi bilan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o'tkazilmoqda.



Galabuta, Shoqishloq, Boysunobod, Shirin, Diyodor kabi mahalla va qishloqlarda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlarda yetti yoshdan yetmish yoshgacha yuzlab fuqarolar ishtirok etdi. Harbiy orkestr jamoasining, yosh, iste'dodli xonandalarning ona yurt va tinchlik, ezgu qadriyatlar, mardlik va jasoratni madh etuvchi qo'shiqlari, faxriy qorovul hamda harbiylarning chiqishlari aholi tomonidan olqishlar bilan kutib olindi.

– Bugun aholimiz uchun unutilmas kun bo'ldi. Buning uchun harbiylardan minnatdormiz, xalq va armiya bir tan-u bir jon, degani shu bo'lsa kerak-da. Vatan ravnaqi va osoyishtaligi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq. Bu, o'z navbatida, har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas'uliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlarini bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi, – deydi "Galabuta" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nurbobo Tursunov.

Ochiq osmon ostida, keng maydonlarda o'tkazilgan tadbirlarda bir necha sport turi bo'yicha musobaqalar ham uyushtirildi Vatan tinchligini asrash, uning har qarich yerini ko'z qorachig'idek himoya qilish kabi ezgu g'oyalarni o'zida mujassam etgan hujjatli film namoyish etildi.

– Shu tabarruk yurt, muqaddas zamin, qalbimizga payvand shu Vatan jondan-da azizdir. Shunday bo'lmaganida ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz dushmanga bo'yin egmasdan Vatan ozodligi uchun mardonavor kurasharmidi, fidoyilik, mard va jasurlik namunasini ko'rsatarmidi? Ularning izdoshlari Bobur G'aniyev, Elomon Otajonov, Sayyor Sa'dinov, Ulug'bek Barnoyev, Bahrom Jo'rayev, Qahramon Madolimov kabi jasur o'g'lonlar xotirasi hamisha qalbimizda. Ularning jasoratini elimiz yillar o'tsa-da unutmaydi. Vatanimiz mustaqilligi himoyasi yo'lida jonini fido qilgan bu yigitlarning qahramonliklari o'sib kelayotgan yoshlar uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib qoladi, – deydi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug axloqiy-ruhiy ta'minot bo'limi boshlig'i podpolkovnik Ahror Jafarov.

Har ikki tumanning qishloqlarida bo'lib o'tgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar bilan bir qatorda aholi keng ko'lamli tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Harbiy okrug tibbiyot xizmati mutaxassislari, Termiz harbiy hospitali shifokorlari ko'rigidan o'tgan fuqarolarga tegishli maslahatlar berildi. Jumladan, Shirin mahallasining shifokorlar nazoratidan o'tgan 120 nafar fuqarosidan 40 nafariga ambulator, 7 nafariga shifoxonada davolanish tavsiya etildi.

– Mustaqillik bayrami arafasida o'tkazayotgan bu tadbirlarimiz chekka qishloqlarda yashayotgan aholi uchun katta yordam bo'lyapti. Ko'rik davomida fuqarolar bilan uchrashuvlar ham tashkil qilib,

ularga onalar va bolalar salomatligini saqlash, ularning tibbiy madaniyatini oshirish, to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, bolalar kasalliklari hamda turli illatlarning oldini olish, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari haqida batafsil ma'lumotlar ham beryapimiz. Ayniqsa, bu ishlarimizdan yoshi ulug' nuroniyalarimiz xursand. 90 yoshni qarshilagan Iqbol momo Xo'jaqulova, 70 yoshli Ro'ziqul bobo Pardayevning duolarini oldik, – deydi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tibbiyot xizmati boshlig'i tibbiy xizmat podpolkovnigi Dilshod Shavqiyev.



III darajali serjant Akbar AHMEDOV,
Furqat ERGASHEV



Bahrom ABDURAHIMOV

YARIM YIL SARHISOBI VA KELGUSI REJALAR

Yillar yeldirim, degani shu bo'lsa kerak. Birpasda 2023-yilning yarmi ham ortda qolibdi. Shu yarim yil nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqada ham kuchli siyosiy o'zgarishlar, voqealarga boy bo'ldi. Ana shunday ulkan o'zgarishlar fonida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining faoliyati ham g'oyat sermahsul kechgani shubhasiz.

Qurolli Kuchlar akademiyasida bo'lib o'tgan tadbir kengashning 2023-yil yarmi yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish masalasiga bag'ishlandi. Ma'lumki, Jamoatchilik kengashi tarkibida to'rtta komissiya mavjud. Yig'inda Mudofaa va harbiy qurilish sohasida me'yoriy-huquqiy va boshqa rasmiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, jamoatchilik fikrini o'rganib borish, jamoatchilik

birlashmalari va Mudofaa vazirligi o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash komissiyasi tomonidan yarim yil davomida olib borilgan ishlar haqida Erkin Salixov batafsil to'xtaldi hamda ayrim masalalar yuzasidan o'z takliflarini bayon etdi. Tadbirda kengashning hududiy bo'linmalari a'zolari onlayn ishtirok etdi. Jamoatchilik kengashining raisi Iqboljon Mirzaaliyev bir qator a'zolar, jamoat tashkilotlari faoliyatlarini e'tirof etar ekan, shoira Zulfiya

Mo'minovaga alohida minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, Mudofaa vazirligida o'zbek adabiy tiliga berilayotgan kuchli e'tibor haqida to'xtaldi. Termiz davlat universiteti rektorining bo'lg'usi harbiy olimlar uchun ilm dargohi eshiklari har doim ochiq ekanligi, ularni qo'llab-quvvatlashga tayyorligi qizg'in olqishlar bilan kutib olindi. Tadbirda so'zga chiqqan mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev Mudofaa vazirligi tizimida olib borilayotgan keng qamrovli ishlarda Jamoatchilik kengashining ham munosib o'rnini borligini alohida ta'kidladi va minnatdorlik bildirdi.

Sarhisob yig'inida eng ko'p takrorlangani – Jamoatchilik kengashining xalq va armiya o'rtasida yakdillikni ta'minlovchi ko'prik ekanligi bo'ldi. Ha, aynan uning samarali faoliyati xalqimiz va milliy armiyamiz o'rtasidagi hamfikirlikni mustahkamlashga, mamlakatimizda mudofaa va xavfsizlik masalalarida olib borilayotgan davlat siyosatini yanada takomillashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Yig'inda kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan ham tegishli tavsiyalar berildi, qarorlar qabul qilindi.

Inobat IBROHIMOVA,
«Vatanparvar»

SANA

QO'SHINLARNING QUVVAT MANBAYI

Mudofaa vazirligida front orti ta'minoti mutaxassislarning bayram tadbiri o'tkazildi. Unda qo'shinlarning moddiy-texnik ta'minoti tizimida fidokorona xizmat qilayotgan bir guruh soha mutaxassislari hamda faxriylar, mashaqqatli mehnat fidoyilari mudofaa vazirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha o'rinbosari polkovnik Zoyir Bozorboyev tomonidan qimmatbaho sovg'alar va esdalik nishonlar bilan rag'batlantirildi.



Muallif suratga olgan

– Qo'shinlarning moddiy-texnik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va sifatli qanoatlantirish, yurtimizda sodir bo'lgan texnogen halokatlarning oqibatini bartaraf etish, harbiy xizmatchilarimizni zarur vositalar bilan ta'minlash yo'lida qilinayotgan ishlar bu tarmoqni muhim bo'g'in sifatida e'tirof etishga arziydi, – deydi podpolkovnik Ulug'bek

Tangriyev. – Bugungi kunga kelib, front orti ta'minoti shaxsiy tarkibi ko'p yillik tajribalardan kelib chiqib, har qanday vaziyatda mustahkam irodani ko'rsatgan holda xizmat vazifalarini a'lo darajada bajarishi lozim. Darhaqiqat, soha mutaxassislari bugungi kunda qo'shinlarni tezkor va zamonaviy moddiy-texnik

vositalar, kiyim-kechaklar va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash orqali Qurolli Kuchlarimizni yanada rivojlantirish, qo'shinlarning jangovar shayligini doimiy ravishda saqlab turish va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Sh. EGAMBERDIYEV

SAMO LOCHINLARI NAVBATDAGI MASHG'ULOTDA

O'zbekistonda har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi Havо floti kuni sifatida nishonlanadi. Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligi Havо hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havо kuchlari qo'mondonligi tomonidan bir necha yildan buyon aviashou tashkil etib kelinmoqda. Bu galgi aviashouga ham qizg'in hozirlik ko'rilmoqda.



Mazkur sana oldidan Chirchiq aerodromida harbiy uchuvchilarning navbatdagi amaliy mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Unda tajribali ofitserlar bilan birga, O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya bilim yurti kursantlari ham qatnashdi. Parvozdan avval qoidaga binoan, uchuvchilarning salomatligi tekshirildi. Tibbiy ko'rikdan so'ng esa nazariy bilimlar, havо harorati va texnik nazorat yuzasidan hisobotlar ko'rib chiqildi.

Havo transportlari texnik ko'rikdan o'tkazilgach, ofitserlar birin-ketin samoga ko'tarila boshladi. Mashg'ulotlar mobaynida nafaqat ko'tarilish va yerga bexato qo'nish, balki uchuvchilarning samoda turli keskin manyovrlar qilish, jangovar harakatlanish mahoratlari ham sinovdan o'tkazildi. Yosh uchuvchilarning esa bilim va mahorati oshirildi.

Ro'ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»

✓ AMALIYOT

YUQORI TEZLIK, OVOZ, ANIQLIK

Havo posbonlarining navbatdagi mashg'ulotlarini tasvirga olish maqsadida Havо hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havо kuchlari qo'mondonligiga qarashli Qashqadaryo viloyatida joylashgan harbiy aerodromda bo'ldik.

Guruhimiz bilan aerodromga yetib borgan paytimiz tonggi soat to'rt edi. Harbiy uchuvchi va texnik xodimlar sahar vaqti bo'lishiga qaramasdan samolyotlarni shay holatga keltirib bo'lgandi. Yoqilg'i quyish ishlari o'z yakuniga yetib bormoqda, tajribali uchuvchilar esa kursantlar va yosh harbiy uchuvchilar uchun uchish va qo'nish, samolyotni boshqarishdagi alohida e'tibor berilishi lozim bo'lgan holatlarga urg'u bergan holatda yo'riqnomalar bilan tanishtirmoqda. Yo'riqchilarning tavsiyalarini kadrqa muhrlar ekanman, uchuvchilarning vazifasi mashaqqatli bo'lish bilan bir qatorda juda qiziqarli tuyuldi. Tavsiyalar to'raligicha berib bo'lingan paytda tong ham yorisha boshlagandi. Dvigateli o't oldirilgan samolyotning to'satdan momaqaldiroqdek gumburlagan ovozi sokinlikni buzib, nigohimizni samoga qadadi. Birin-ketin gumburlagan ovozlari ko'payib, samo lochinlari o'z mahoratlarini turli manyovrlar bilan namoyish eta boshladi. Ayniqsa, ikki-uch samolyot bir paytning o'zida bir xil harakatlarni bajarib, "raqs" tushishiga qarab turib, qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Tezlik o'ta yuqori, ovoz juda baland, harakatlari bir xil.

Quyosh tik holatga kelganida uchuvchilarga mashg'ulot yo'riqchilari tomonidan uchishni yakunlashga oid topshiriq aloqa vositalari orqali yetkazildi. Uzoqdan zarradek ko'ringan harbiy uchoqlarimiz soniyalar ichida belgilangan yo'laklarga birin-ketin qo'na



Muallif suratga olgan

boshladi. Topshiriqni a'lo darajada bajarib bo'lgan lochinlarni kutib olgan texniklar samolyotlarni ko'rikdan o'tkazdi. Barchasi o'z joyida ekanligiga ishonch hosil qilgan uchuvchi va texniklar topshiriq to'laqonli ado etilganligi to'g'risida hisobot berdi.

Harbiy aerodromni yana sokinlik chulg'adi. Gumburlagan ovozlari sasi o'chsa-da, quloqlar ostida hali-hamon uning aks sadosi jaranglab turgandek edi. Yuzimizga mayin shabada urila boshladi. Sokinlik hissi baribir boshqacha bo'lishini yurak-yurakdan his qildim. Shovqindan tarqoq holatga kelgan fikrlarim yana tiniqlashdi. Tinchlikka yetadigan ne'mat yo'q ekan. Yengil tin olib, xayolimga birinchi kelgan fikr mana shu bo'ldi.



Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»

URDU VA DARIY TILIDAGI QUTLOVLAR



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari "Tinchlik yo'lida hamkorlik" markazida mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida tantanali badiiy tadbir o'tkazildi.



Markaz boshlig'i polkovnik Baxtiyor Do'sniyazov O'zbekistonning mustaqillik davrida erishgan ulkan yutuqlari haqidagi nutqi bilan tadbirni ochib berdi.

Unda Sharqiy tillar kafedrasida urdu va dariy tillari guruhi tinglovchilari o'z chiqishlari bilan o'rganayotgan tillarini yaxshi o'zlashtirganliklarini namoyon etishdi. Ular urdu va dariy tillarida biyron so'zlabgina qolmay, shu millatlar tarixi, madaniyati, san'ati va adabiyotini puxta o'rganganliklarini isbotlashdi.

– Harbiy xizmatchilarning intensiv kurs mashg'ulotlarini nazariy va amaliy jihatdan mukammal egallashlarida markazda yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan eng so'nggi rusumdagi lingvistik jihozlar, hamda o'qituvchilarning metodik mahoratining

ahamiyati katta. Amaliy ko'nikmalarni oshirishga xizmat qiladigan bu kabi tadbirlar boshqa xorijiy tillar tinglovchilari tomonidan ham o'tkaziladi, – deydi Sharqiy tillar kafedrasida boshlig'i podpolkovnik Farhod Avazov.

Qo'shiq, raqs va she'rlar barcha qatnashchilarga manzur bo'ldi. Ayniqsa, xorijiy tillarda yangragan Vatan va mustaqillik haqidagi qo'shiqlar harbiy xizmatchilar va mehmonlarni yanada jonlantirdi.

Shu bilan birgalikda "Kamalak" bolalar va o'smirlar gimnastika va raqs guruhi qizaloqlarining chiqishlari ham tadbirga bayramona shukuh bag'ishladi.

Yakunda faol qatnashchilar markaz boshlig'ining faxriy yorlig'i va tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.



"ILMDAN BOSHQA NAJOT YO'Q"

O'n yillar muqaddam. Endigina "Vatanparvar" birlashgan tahririyatida faoliyatimni boshlagan kezarim edi.

Hali harbiy qism va muassasalar haqida batafsil ma'lumotga ega emasman. Nogahon, fotoapparat bilan oltinchi qavatga chiqib, bitiruv tantanasini suratga olish bo'yicha topshiriq bo'ldi.

Tushunib, tushunmay aytilgan fursatda, belgilangan manzilga yetib bordim. Vatan himoyachilari harbiy libosda saflangan, barchasida bayramona kayfiyat. Nimanidir do'ndirgandek yigitlarning og'zi qulog'ida. Polkovnik ularga sertifikatlarni tantanali sur'atda topshirar ekan, qayd qilib qo'yishga arzigulik iboralar aytardi. Suratga tushirar ekanman, eslab qolishga harakat qilardim. O'rgangan xorijiy tillarini unutmaslik, takrorlab, foydalanib turish lozimligini qayta-qayta uqtirdi.

Shunday kunlarning birida ishonamiz – Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentiga boshliq bo'lib kelganiga u qadar ko'p bo'lmagan, nisbatan yosh, zamonaviy fikrlaydigan rahbar polkovnik Otabek Yuldashev ijodiy jamoaga ushbu markazda tahsil olib, xorijiy tilni o'zlashtirishni tavsiya qilib qoldi. Bu boradagi tashabbusimni ham qo'llab-quvvatladi.

Nihoyat, o'n yillik orzum to'qqiz yil deganda amalga oshdi. Bungacha o'rganganlarim chang bosib, xiralashib qolgan ekan. Xullas, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari "Tinchlik yo'lida hamkorlik" markazi ingliz tili kursida tahsilni boshladik. Turli harbiy qism va muassasalardan kelgan Vatan himoyachilari tez fursatda tanishib, bir jamoadek bo'lib qoldi.

Tinglovchilarning har tong va kechki payt saflanib, tanbeh eshitishlariga guvoh bo'lib, o'zimga yolg'ondakam taskin beraman. Ayrim kunlari tinglovchilardan tortib katta ofitserlargacha obodonlashtirish ishlarida ekanini, ba'zi xonalarni tunda qolib, ta'mirlayotganliklarini ko'rib, markazda tahsil olish imkoniyati kechikayotgani uchun tasalli topgandek bo'laman. O'zimni o'zim naqadar ovutganimga qaramay, baribir bezovtalik tark etmasdi.

Shunday kunlarning birida ishonamiz – Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentiga boshliq bo'lib kelganiga u qadar ko'p bo'lmagan, nisbatan yosh, zamonaviy fikrlaydigan rahbar polkovnik Otabek Yuldashev ijodiy jamoaga ushbu markazda tahsil olib, xorijiy tilni o'zlashtirishni tavsiya qilib qoldi. Bu boradagi tashabbusimni ham qo'llab-quvvatladi.

Nihoyat, o'n yillik orzum to'qqiz yil deganda amalga oshdi. Bungacha o'rganganlarim chang bosib, xiralashib qolgan ekan. Xullas, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari "Tinchlik yo'lida hamkorlik" markazi ingliz tili kursida tahsilni boshladik. Turli harbiy qism va muassasalardan kelgan Vatan himoyachilari tez fursatda tanishib, bir jamoadek bo'lib qoldi.

Markaz jamoasining ham yangi joy – yangi inshootlarga ko'chib kelib, faoliyat yuritayotganiga u qadar ko'p bo'lgani yo'q. Bitta shaharchada joylashgan paytimiz markaz rahbarlari harbiy xizmatchilarni yig'ib olib, nima derkin, degan xayolda yurar edim. Endi men ham ularning safidaman. Harbiy libos, harbiy tartib-intizom...

Shunga qaramasdan, dars jarayoni, ta'lim berish metodikasi butunlay

zamonaviy. O'qituvchi bilan tinglovchilar orasiga "Xitoy devori" qurilmagan. Muhimi, bilim olish, o'zlashtirish. Aytgancha, har haftada ikkita (*bitta nazariy, ikkinchisi amaliy*) kitobni tugatyapmiz. Juma kuni haftalik o'zlashtirishni aniqlaydigan sinov testi. To natijalar kompyuter ekranida paydo bo'lgunicha hamma ishtirokchilar yurak hovuchlab o'tiradi. Bir soatda eshitish, o'qish, grammatikani o'zlashtirish, so'zlashuv mahorati bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarimiz ma'lum bo'ladi.

Vaqt o'tgan sari ingliz tili olamiga kirib borayotgandek edik. O'zlashtirganimiz sayin til o'rganishning ham oxiri yo'qdek tuyuladi. Firdavsiy bobo aytganidek: "Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on, shunda bilursanki ilm bepoyon".

Markazda gurdani ko'tarib, xotirjam yurishning bittagina yo'li bor. Imom Ismoil al Buxoriy boboning ushbu o'g'itlariga qat'iy amal qilish shart: "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay!"

Biz ham 2-3 haftalik tahsildan so'ng hech narsa bilmasligimizni sezib qoldik. Bo'shliqlarni to'ldirish uchun internetdan turli dasturlarni yuklab olishni boshladik.

Biri grammatika, ikkinchisi gapirish, boshqasi yozish, o'qish, eshitish ko'nikmasini oshiradi.

Guruhda kimdir foydaliroq qo'llanma topib qolsa, darhol hammaga ulashadi. Saboq beradigan o'qituvchilarning almashib turishining ham afzal tomonlari ko'p ekan. O'qitish metodikasi ayricha bo'lish bilan birgalikda, munosabatdagi turfa xillik kishini sergaklantiradi.

Bizdan bir necha oy ilgari tahsilni boshlagan tinglovchilar bilan tajriba almashish juda zavqli. O'zingizni ko'p narsani bilib qolgandek his qilasisiz. Aytgancha, shu bahona uyda farzandlarimiz ham til o'rganishni jadallashtirib yubordi.

Har tong markazning yangidan barpo etilgan majmuasiga yaqinlasharkanman mazkur jamoaning eski binoda kuymalanib, imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish uchun tunlarni tonglarga ulaganlari ko'z oldimda aylanadi. Majmuaning ochilish marosimida markaz boshlig'i polkovnik Baxtiyor Do'sniyozovning aytgan so'zlari qulog'im ostida yana jaranglagandek bo'ladi: "Orzum ushaldi, endi mening armonim yo'q!"

ODIL SUDLOV ORGANI



Mustaqil O'zbekiston chin ma'noda tarixiy yo'lni bosib o'tmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar barcha sohalarida bo'lgani kabi Qurolli Kuchlar mudofaa salohiyatini yuksaltirish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Har qanday jamiyatda, eng avvalo, fuqarolarda amaldagi qonunlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirib, ularga og'ishmay rioya qilinishini ta'minlash mamlakatning barqaror rivojini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois sud-huquq sohasini jadallik bilan isloh qilish borasida oldinga qo'yilgan vazifalar barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatorida sudlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Sud tizimini isloh qilish, avvalo, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash orqali fuqarolar sudga jazolovchi organ deb emas, o'z huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida murojaat qiladi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 136-moddasida sudyalarning mustaqil ekanligi, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, sudyalarning muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmasligi kabi muhim normalar bilan mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida odil sudlov O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar natijasida harbiy sudlar faoliyatining huquqiy asoslari yetarlicha shakllantirildi. 2021-yil 28-iyulda yangi tahrirda amalga kiritilgan "Sudlar to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu qonunning 5-bobi harbiy sudlarga taalluqli bo'lib, uning 43-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlardan iborat qilib belgilangan. Shuningdek, harbiy sudlar tarkibi, harbiy sudlar sudloviga taalluqli ishlar va ular faoliyatini tashkil etish tartiblari ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur qonunchilik hujjatining 45-moddasida mamlakat harbiy sudlari sudloviga taalluqli ishlar, ya'ni Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya qo'shinlarining va qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar, harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalarning, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini ko'rish mumkinligi belgilangan. Bular sirasiga harbiy boshqaruv organlari qarorlari, harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (*harakatsizligi*) ustidan shikoyatlari, alohida holatlar tufayli sudlar faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlari, qonun bilan o'z vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar, davlat sirlariga taalluqli ishlar hamda qonunga muvofiq boshqa ishlar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasida harbiy sudlar faoliyati alohida normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan bo'lsa-da, ular umumiyurisdiksiya sudlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular Qurolli Kuchlar tizimida odil sudlovni ta'minlash bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilar va

boshqa shaxsiy tarkib o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish, harbiy muassasa va tashkilotlarda yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlarni bartaraf qilish borasida joylardagi harbiy huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda keng qamrovli huquqiy-targ'ibot ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Sudlar faoliyatining ochiqdigi va shaffofligini ta'minlash, jamiyatda korrupsiya omillariga nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, jinoyatlarning kelib chiqish sabablarining oldini olish va salbiy holatlarga yo'l qo'yimaslik maqsadida sudyalarning teleko'rsatuv, radioeshittirishlarda, gazeta va jurnallarda yangi qonunlar mohiyatini tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borish ish rejasi tuzilib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Hududlarda sodir etilgan jinoyatlar, huquqbuzarlik va nizolar yuzasidan ish yurituvdagi materiallarning sayyor sud majlislarida ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilib, sudlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar sud ishtirokchilariga to'liq va aniq tarzda tushuntirib berilmoqda. Ochiq sayyor sud majlislarida ko'rib chiqilgan ishlar natijasida Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning tinchligi va totuvligi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilinishi ta'minlanmoqda. Ko'rilayotgan ishlarga doir amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan moddiy va protsessual qonunchilikning mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka tushuntirilmoqda.

Sudyalarning xalq orasiga kirib borishida ochiq sayyor sud majlislari hamda jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarni keltirib chiqargan shart-sharoitlarni oldini olish, ularni bartaraf qilishga qaratilgan profilaktika tadbirlari muhim o'rin tutadi. Bu borada ham harbiy sudlar alohida g'ayrat bilan ishga kirishgan. Jumladan, sudlar tomonidan harbiy qism va muassasalar, oliy o'quv yurtlari, tashkilotlar va aholi vakillari o'rtasida huquqiy mavzularda davra suhbatlari, seminar mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bundan maqsad sudlar faoliyatining ochiqdigi va shaffofligi, ularning jamoatchilik oldida hisobdorligini ta'minlash orqali odamlarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini qozonish, qolaversa, sudyalarning mas'uliyatini oshirishdan iborat. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish dasturi doirasida "E-XSUD" axborot tizimi bazasi asosida sud ishlarini yuritishning yagona axborot tizimi yaratildi. Sudlar videokonferens-aloqa uskunalari bilan jihozlangan bo'lib, yagona korporativ tarmoq tashkil etish uchun optik tolali aloqa tarmog'i bilan ta'minlangan. Bu esa fuqarolar, yuridik va jismoniy shaxslarga qo'shimcha qulayliklar yaratish, ularning odil sudlovga erishish imkoniyatlarini oshirish, sudga murojaat qilishini yengillashtirish, ovoragarchilik va sarsongarchiliklarning oldini olish, cheklov va to'siqlarni keskin kamaytirish orqali yuqori samaradorlikka erishish, moddiy resurslarni tejab, ulardan oqilona foydalanish imkonini bermozda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari mamlakatimiz sud tizimining alohida bo'g'ini sifatida o'ziga qonun bilan yuklatilgan vazifalarni samarali bajarib, Qurolli Kuchlarimizda odil sudlovni ta'minlash, harbiy xizmatchilar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muntazam jonbozlik ko'rsatmoqda.

Sh. DO'SALIYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy sudi sudyasi

“Adolat doim bitta bo‘lgan. Qonunning o‘zi adolat bilan bog‘liq. Shu mezonlardan kelib chiqqan holda qonunlar paydo bo‘ladi. Rost va yolg‘onni tarozining ikki pallasiga tashlaysan va haqiqatni olasan. Bir qarashda juda murakkab jarayondek ko‘rinadi. Biroq har qanday holatda ham haqiqat yolg‘ondan og‘ir bo‘lgan. Burch va vijdon yonma-yon kelib qolishi bu noto‘g‘ri tushuncha. Sababi avval ham ta‘kidlab o‘tilganidek, adolat doim bitta bo‘ladi. O‘shani topa bilish kerak. Vijdoning qiynalyaptimi? Demak, sen adolat qila olmagan...”



Adolat yagona



Huquqiy demokratik davlatda adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog‘liq. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi uning tantana qilishiga olib keladi. Taniqli huquqshunos, prokuratura va sud faxriysi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, II darajali davlat adliya maslahatchisi Tohir Mirzayev bilan ayni shu xususda suhbatlashdik.

– Suhbatimiz avvalida mamlakatimizda “harbiy sud” tushunchasining kelib chiqish zarurati va uning tarixiga to‘xtalsak.

– Sobiq Ittifoq davrida “harbiy sud” atamasi o‘rniga “harbiy tribunal” jumlasini qo‘llanilgan. Harbiy tribunal 1917-yildan boshlab Qizil armiya uchun tashkil etilgan. Bizning mintaqamizda bu Turkiston harbiy okrugi harbiy tribunali deb yuritilardi. Turkiston harbiy okrugi to‘rtta respublikani o‘z ichiga olgan. Bular O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston hamda Turkmanistondir. O‘sha davrlarda mintaqamizdagi harbiy tribunal markaz, ya‘ni Moskva qaramog‘ida bo‘lgan va O‘zbekistonga bo‘ysunmagan. Bunga sabab, SSSR o‘zining imperiya siyosatini olib borgan. O‘sha paytlarda hukmlarning aksariyati markaz tomonidan berilar va shuning uchun ham harbiy tribunallar mustaqil faoliyat yurita olmas edi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy harbiy sudimiz bo‘lmagan.

Mustaqillik sharofati bilan sobiq Turkiston harbiy okrugi harbiy tribunali negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy sudi tashkil etildi. Keyinchalik bu Konstitutsiyamizda ham aks etib, tribunal atamasi harbiy sud atamasi bilan almashtirildi. Respublikamiz hududida joylashgan harbiy sudlar O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga kiritildi. Hududdagi barcha harbiy qismlar, qo‘shilmalar, strategik, umumiy vazifaga ega birlashmalar, harbiy ta‘lim muassasalari va boshqa harbiy tuzilmalarda odil sudlovni O‘zbekiston Respublikasi nomidan amalga oshirishi belgilab qo‘yildi.

1992-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida harbiy hay‘at tashkil qilinib, unga alohida muhim ishlarni birinchi bosqich sudida, shuningdek ishlarni kassatsiya va nazorat bosqichlarida ko‘rish vakolatlari berildi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyalarning vakolatlari tasdiqlangan.

– Ayrim yoshi ulug‘lar ali-hanuz “tribunal” atamasini ishlatadi va bu so‘zni eshitganlar xuddi dor ostiga kelgan kishilarni tasavvur qiladi. Bu atamaning xalqimiz ongiga muhrlanib qolinishining sababi nimada?

– Buning bir qancha sabablari bor, deb o‘ylayman. Sobiq ittifoq davridagi harbiy tribunallarning hammasi markaz tomonidan tashkillashtirilgan va faqat ularga bo‘ysungan. O‘sha paytlarda odamlarga adolatsiz

hukm chiqarishda harbiy tribunallarning aybi katta bo‘lgan. Ular ko‘pchilik insonlarni yo surgun qilar yoki otuvga hukm etardi. Bularning hammasi tariximizdan ma‘lum.

Mustaqillikdan keyin odamlar ongida qatag‘on davrida o‘zining yovuz hukmi bilan nom tanitgan tribunal so‘zi o‘rniga harbiy sud atamasi kiritildi. Endilikda bajarilishi kerak bo‘lgan dastlabki ishlardan biri bu xalqimiz ongida harbiy sudga bo‘lgan tushunchani o‘zgartirish edi. Axir bu avvalgi tribunal emas. O‘zining adolatsizligi bilan minglab odamlarning yostig‘ini quritgan, faqat markazning buyrug‘ini bajaradigan qatag‘on mashinasi emas. Bu boshqacha sud. Bu sud qonun ustuvorligini ta‘minlaydigan, xalqimizga xizmat qiladigan, harbiylarimiz og‘irini yengil qiladigan sud. Harbiylarimiz kim? O‘zimizning bolalarimiz. Endilikda odamlarimiz tushundiki, bu avvalgisidan tubdan farq qiladigan sud.

Ikkinchidan, milliy armiyamizda o‘zimizning o‘zbek askarlari botir o‘g‘lonlar siyosida gavdalanmoqda. Axir bizning millat o‘g‘lonlariga jinoyatchilik mutlaqo begona bo‘lgan. Endilikda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan qadriyatlarga, ya‘ni mehmondo‘st, qardosh, insonlarni hurmat-izzat qiladigan, birodarlik, ahdiga vafo qiladigan askar siyosini gavdalanirishga e‘tibor qaratila boshlandi. Shu jihatlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda armiyamizda jinoyatchilik, qonun buzilish holatlari uchramaydi. Mustaqillikdan keyin harbiy sud boshqa organlar bilan hamkorlikda ko‘p ishlarni olib bordi. Masalan, jazo turlarini o‘zgartirdi. Ayrim jihatlarda ularni yumshatdi ham. Bundan ko‘zlangan maqsad inson qadri tushunchasini birinchi o‘ringa qo‘yishdir.

– Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Mamlakatimizda harbiy sudlar tashkil topgandan keyin ularning mustaqil bo‘lishi uchun qanday ishlar amalga oshirildi? Umuman olganda, sudlarning to‘la mustaqil faoliyat yuritishi qay darajada muhim?

– Fuqarolar erkin va farovon yashashi uchun sud mustaqil bo‘lishi kerak. Huquqiy demokratik davlatning zaruriy shartlaridan biri mustaqil sud tarmog‘i sanaladi. Shu sababli, 1999-yil 23-sentabr kuni Qurolli Kuchlar Harbiy sudi “O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi” deya qayta nomlandi hamda ushbu islohotlardan ko‘zlangan

asosiy maqsad sudlarning mustaqilligini mustahkamlash bo‘ldi. 2000-yilda Harbiy sudning maqomi o‘zgartirildi. U odil sudlovni amalga oshirish nuqtayi nazaridan idora tasarrufidan chiqarilib, qonun ustuvorligini ta‘minlaydigan mustaqil sudga aylandi. Harbiy sud faqat Qurolli Kuchlar sudi bo‘lmay qoldi. Harbiy sud garchand protsessual vakolatlarga ko‘ra, sud tizimining ikkinchi bo‘g‘ini, ya‘ni viloyat sudiga tenglashtirilgan bo‘lsa-da, huquqiy maqom jihatidan respublika sudiga ega bo‘ldi. Chunki uning faoliyati mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy idoralarga tatbiq etiladi.

Harbiy sudlarning shtat birliklari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga o‘tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy sudyalarning Mudofaa vazirligi shtatiga kiritilgani ushbu vazirlik ijro hokimiyati organi hisoblanishi tufayli sud hokimiyati mustaqilligining, uning faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillariga muvofiq kelmas edi. Prezidentimizning 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sud tizimini tubdan isloh qilish asoslarini belgilab berdi. Farmon bilan harbiy sudlar Qurolli Kuchlar tarkibidan chiqarilib, ularning to‘la mustaqilligi ta‘minlandi.

– Suhbatimiz so‘ngida sizga yana bir savol bilan yuzlansak. Agar burch va vijdon tushunchalari yonma-yon kelib qolsa, ular orasidan adolatni qanday ajratib olish mumkin?

– Adolat doim bitta bo‘lgan. Qonunning o‘zi adolat bilan bog‘liq. Shu mezonlardan kelib chiqqan holda, qonunlar paydo bo‘ladi. Rost va yolg‘onni tarozining ikki pallasiga tashlaysan va haqiqatni olasan. Bir qarashda juda murakkab jarayondek ko‘rinadi. Biroq har qanday holatda ham haqiqat yolg‘ondan og‘ir bo‘lgan. Burch va vijdon yonma-yon kelib qolishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘ylashimcha, bu noto‘g‘ri tushuncha. Sababi avval ham aytib o‘tganimdek, adolat doim bitta bo‘ladi. O‘shani topa bilish kerak. Buning uchun o‘qish, izlanish lozim. Vijdoning qiynalyaptimi? Demak, sen adolat qila olmagan...”

Sherzod EGAMBERDIYEV suhbatlashdi.



“OY

QALBLARNI QUVONTIRADI”

Qo'limda ikki kitob bor. Birida “jahon bestsellerlari:

1 000 000 nusxadan ortiq sotilgan” degan belgisi bor. Bu F. Skott Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” asari. Mazkur asarning hech bo'lmaganda nomini eshitgan chiqarsiz. Qachonlardir bu kitobning toshkentlik o'quvchilar qo'liga yetib kelishi ham bir voqea bo'lgan. Ha, ha, bir vaqtlar Toshkentimiz shunday kitobsevar edi. Noyob kitoblar sotiladigan joylar va u kitoblarning xos xaridorlari bo'lgich edi.



Million nusxadan ortiq sotilgan kitob bizning tavsiyamizga muhtoj emas. Shunday bo'lsa-da, kelgusida “Buyuk Getsbi” haqida ham to'xtalish niyatimiz yo'q emas.

Ikkinchi kitob esa “Erta o'ldirgani boraman”. Nomining sovuqligini?! Ammo qonli haqiqatni jozibador nomlab ham bo'lmaydi-da. Asar muallifi Ishmael Bix sarlavha ostida “Askar bolakayning xotiralari” deb yozibdi. Askar bola, askar bolakay... Askarlik bolalarga qolgan u qaysi yurt ekan?!

Syerra-Leone, G'arbiy Afrikada joylashgan davlat. U 1961-yilning bahorida ingliz mustamlakasidan ozod bo'ldi. Ozodlikka erishish oson emas, ammo erishish mumkin. Biroq uni asrash hammasidan ham qiyindir. 1961-yil bahoridan beriga ham ko'p suvlar oqib o'tdi. Bu mamlakatda ham bir necha bor hokimiyatlar almashdi, hokimiyat talash bo'ldi, isyonlar, qurolli to'qnashuvlar, Vatan nomidan ish ko'rgan hukumat qo'shinlari ham o'z fuqarolarini o'ldirdi, ozodlikni peshvo qilgan isyonchilar ham o'z vatandoshlarini o'ldirdi. Ishmael Bix bularning guvohi edi, guvoh emas, 13 yoshida hukumat qo'shinlari safida askar bo'lib, qo'li qonga botgan...

Ishmael Bix 1980-yil Syerra-Leonedada tug'ilgan, fuqarolar urushi ishtirokchisi, 1998-yilda AQShga ko'chib o'tgan.

“Erta o'ldirgani boraman” asari qo'rqinchli bir tush kabi. Unga boshqa ta'rif berolmadim. Fuqarolar urushining dahshati asarda borligicha aks etgan. Aslida, bu kitobdan ko'ra yorqinroq, yorug'roq bir asarni tavsiya qilgim bor edi. Ammo bor narsamizni har doim ham qadrlamaslik biz insonlargagina xos. Hech xavotirsiz bolalariningni o'qishga, ishga kuzatish, oila jamuljamligi, do'stlar, xesh-u aqrabolarning yaxshi kunlariga sherik bo'lish, go'zal bayramlarimiz, yo'llar, ta'lim, tibbiyotning yanada yaxshiroq bo'lishi uchun qayg'urishlarimiz, noroziliklarimiz – bular barchasi tinchlik tufayli, bular barchasi tinch yurtga yarashadi.

Ishmael Bixning asarini o'qib chiqqaningizdan so'ng dunyoga bir boshqacha nigoh bilan boqishingizga ishonaman. Qalbingizni shukronalik hislari to'ldirsa, ajab emas. Quyida asar haqida so'zlashdan tiyilib, parchalar keltirishni lozim topdik.

“Maktabdagi o'rtoqlarimga boshimdan o'tgan voqealar haqida gapirib bersam, ishonqiramay qarashdi.

– Nima uchun Syerra-Leoneni tark etding?
– Chunki urush boshlanib qoldi.

– Janglarning guvohi bo'lganmisan?

– Mamlakatdagi barcha aholi urush dahshatini his qilishgan.

– Demak, avtomatdan otilgan o'q odamni qanday

o'ldirishini o'z ko'zing bilan ko'rgansan?

– Ha, bir necha bor.

– G'aroyib!

Yuzimga yengil tabassum yugurdi.

– Bu haqda batafsil aytib bera olasanmi?

– Ha, qachondir hammasini aytib beraman...”

“O'sha kunning so'nggi dahshatli epizodi haligacha ko'z oldimdan ketmaydi. Yelkasida kichkina qizalog'ini ko'tarib ketayotgan ona bor kuchi bilan yugurardi. Ayolning kiyimi qip-qizil qonga belangan, bir necha o'q qizining orqasiga tegib, ayolning tanasiga yopishtirib qo'ygandi. Qizaloq o'qlarni o'zi qabul qilib, onaning hayotini saqlab qoldi. U holdan toyib to'xtadi, bizning oldimizga kelib o'tirdi va o'lik bolani quchoqladi. Qizaloqning ko'zlari ochiq, lablari beg'ubor va sodda tabassum qotib qolgandi. Bir necha o'q ilma-teshik qilib tashlagan jajjigina qizaloqning jonsiz tanasini ko'z oldingizga keltiring... Ayol go'dakni quchoqlab, tebrata boshladi. Og'riq zo'ridanmi, karaxlikdanmi, ko'ziga zarracha yosh olmadi”.

“Ammo menda bir savol paydo bo'ldi – nega ozodlikni sevuvchi isyonchilar tinch aholi va bolalarni o'ldirmoqda? Nima uchun ular yosh qizaloqni otib tashlashdi?”

“Har bir uyning orqa tomonida mango daraxtlari ekilgan bo'lib, daraxtlarda qushlar in qurib olishgan va har kuni chug'ur-chug'ur qilib, nimalardir to'g'risida gaplashishadi. Ehtimol, odamlarning shafqatsizligi haqida bo'lsa kerak...”

“...Oy har doim hammaga quvonch keltiradi. Garchi hamma har xil qabul qilsa ham, oy nuri baxt hadya etadi. Bolalar oy nuri ostida o'ynashadi, shovqin-suron solishadi. Kattalar esa davra qurib, tun bo'yi suhbatlashishadi. Raqsga tushishadi. Oy qalblarni quvontiradi. Shuning uchun unga o'xshashga harakat qilish kerak”.

“Har qachon odamlar bizni o'ldirish ilinjida yonimizga kelganida, ko'zlarimni yumaman va o'limni kutib turaman. Hozir tirik ekanimga qaramasdan, bir necha bor o'limga duch kelganim uchunmi, ruhim o'lib borayotgandek his qilaman. Menimcha tez orada butunlay o'likka aylanib, sizlar bilan faqatgina bo'm-bo'sh tanam qolsa kerak. Bu sizga ham seziladi”.

“Bugungi kunda ham o'ta-onam va opalarim his qilgan og'riqni ko'tarib kelmoqdaman. Isyonchilar ketganidan so'ng men hovliga oshib o'tdim, bir joyda tura olmadim. Ko'z yoshlarim daryo bo'lib oqdi. Xo'rligim keldi. Tomirlarim tanamni chirmab olib, bo'g'ib qo'ygandek his qildim o'zimni. O'sha kuni unuta olmayotganim uchunmi, har kuni o'sha hissiyotlarni boshdan

kechiraman. Opalarimni himoya qila olmaganim uchun haligacha ich-etimni kemiraman”.

“O'qlar haligacha bizni ta'qib qilardi. Bir necha soat yo'l yurganimizdan so'ng o'rmonning ichkarisiga kirib qolganimizni angladik. So'qmoq tamom bo'ldi, ammo osmon quyoshni yutib yuborib, oy qayta tug'ilgungacha yugurishda davom etdik. O'qlar tepamizdan uchib o'tar, ammo qorong'i bo'lgani uchun, butalarni teshib o'tayotgan o'qning qizilligini ko'rish mumkin edi. Oy to'satdan qayergadir yo'qoldi, o'zi bilan birga yulduzlarni ham olib ketdi. Havo aynib, yomg'ir yog'a boshladi. Osmonning ko'z yoshlari bizni qizil o'qlardan saqlab qoldi”.

“Daryo bo'yida aylanib yurgan 11–13 yashar bolalarni askarlar kiyimida ko'rib yuragim shuv etib ketdi. Ular tomonga qaramaslikka intildim. O'q ovozlari balandlashib bordi.

Serjant biz ilgari hech qachon bormagan uy orqasiga chorlashi bilan askarlar o'z chodiridan chiqib kelishdi. Bu yerda jami o'ttizdan ortiq bola hozir bo'lgan, ular orasida Sheku va Josiah mos ravishda yetti va o'n bir yoshda edi. O'n yetti yashar Kaneidan tashqari hamma o'n uch va o'n olti yosh arafasida edi”.

“Yuzlarim, qo'llarim, ko'ylagim, qurolim, xullas hammasi qonga belangan edi. Qurolimni ko'tardim, tepkini bosdim. Umrimda ilk bora odam o'ldirdim!!!”

“Men Syerra-Leonedanman. Mamlakatimizdagi bolalar boshiga tushgan asosiy muammo fuqarolik urushi hisoblanadi. Ular o'z uylarini tark etishlariga to'g'ri kelgan, ko'pchilik qarindoshlari va do'stlarini yo'qotib, uzoq vaqt o'rmonlarda yashiringan. Natijada, ba'zi bolalar o'z-o'zidan harbiy harakatlarda qatnashishga majbur bo'lgan...”

Men ham urushda qatnashdim. Chunki men butun oilamni yo'qotdim. Och qoldim. O'zim uchun oziq-ovqat topishni istadim. Harbiylardan bo'lak hech kim menga yordam bera olmadi. Askar hayoti oson emas, lekin menda boshqa tanlov yo'q edi”.

P.S. Asarni ingliz tilidan o'zbek adabiy tiliga Ahror Sharif chevirgan. Tarjima mashaqqatli bir ish. Shunday bo'lsa-da, benihoya boy tilimizda “otjimaniye” so'zining muqobili topilmagani ajablanarli. Ayrim inglizcha nomlar izohsiz berilgani ham maqsadga muvofiq emas. Asardagi imlo xatolari, so'z qurilishlari musahhih hamda muharrir e'tiboridan chetda qolgan. Bular asar qimmatiga putur yetkazadi, qilingan katta mehnat yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Mundarija yo'qligini tushunmadim. Kelgusida “Adast poligraf” bu narsalarga jiddiy e'tibor qaratadi, degan umiddaman.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Axloqiy omilning roli

Zamonaviy davlat professional armiyasiz mavjud bo'la olmaydi. Armiyaning qudratini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri ofitser kadrlarning sifat jihatidan har tomonlama puxta tayyorgarligi hisoblanadi. Davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlash vazifasining dolzarb masalaga aylanishi harbiy sohada axloqning o'rni va roli naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.



Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim.

Qo'shinlar jangovar shayligini yuqori darajada ta'minlashda Qurolli Kuchlarimizning jangovar, texnik va axloqiy qudrati masalasiga ilmiy jihatdan yondashishning ahamiyati kun sayin oshib bormoqda. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanib borsa, harbiy texnika va qurol-yarog'lar ham ularga monand tarzda takomillashib bormoqda. Biroq harbiy-texnik inqilobning eng muhim qonuniyatlari urushning borishi va natijasi qo'shinning ma'naviy-axloqiy holatiga bog'liq ekanini inkor etgani yo'q. Harbiy texnika naqadar qudratli bo'lmasin, uni boshqarish uchun nafaqat yuksak bilim, harbiy-kasbiy mahorat talab etiladi, balki ma'naviy-axloqiy barqarorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk sarkardalar va mutafakkirlar o'zlarining hayotiy tajribasi asosida g'alaba yoki mag'lubiyat qo'shinning axloqiy salohiyatiga bevosita bog'liq ekanini qayd etgan. Jumladan, so'g'dlar lashkarboshisi Spitamen, Turon qoploni Jaloliddin Manguberdi, buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek G'arbning ko'zga ko'ringan harbiy nazariyotchilari Karl fon Klauzevits, Antuan Anri Jomini, rus sarkardalari Aleksandr Suvorov, Georgiy Jukov kabilar urushda odamlar axloqiy salohiyatining o'rni va rolga alohida e'tibor qaratganlar.

Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va jangovarlik qobiliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy omillar orqali namoyon bo'ladi. Ammo moddiy tomon qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, asosiy e'tibor inson omiliga, uning kasbiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy sifatlariga qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqsak, davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlashda asosiy va hal qiluvchi rol inson omiliga, shaxsning, mamlakat aholisining va Qurolli Kuchlarning ma'naviy imkoniyatlariga tegishlidir. O'z navbatida, axloqiy omil urush va zamonaviy jangovar harakatlarda g'alabani ta'minlab beruvchi asosiy manbalardan biri sanaladi.

Odatda, "axloqiy omil" atamasi ekstremal vaziyatlar (*jangovar harakatlar, qurollangan jinoyatchilarni qo'lga olish, texnogen falokatlar yoki tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish va h.k.*)da odamlarning xulq-atvorini baholashda keng qo'llaniladi. Ammo mazkur tushunchaning kundalik hayotda inson xulq-atvori va faoliyatiga tavsif berishda ahamiyati ham juda katta. Axloqiy omil tushunchasi shaxs, jamoa, ijtimoiy birlikning muayyan vazifani bajarish jarayonida axloqiy kuch-qudratning namoyon bo'lish me'yorini ifodalaydi.

Axloqiy omil "me'yor" kategoriyasi sifatida muayyan sharoitlarda subyektlar faoliyatining konkret vazifani bajarishga shayligi va qobiliyatini (*harbiy burch tuyg'usi, jamoa jipsligi, salbiy tuyg'ularni yengib o'tish qobiliyati, buyruqni tez va sifatli bajarish qat'iyyati, g'alabaga ishonchi va h.k.*) aks ettiradi. Modomiki, ushbu tavsif har bir subyektda turlicha namoyon bo'lar ekan, axloqiy omil insonning axloqiy holati, axloqiy madaniyatining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining dialektik birligini ifodalovchi me'yor sifatida namoyon bo'ladi.

Mashhur tarixchi va davlat arbobi Xoja Samandar Termiziy (1638–1740) o'zining "Dastur al-muluk" (*"Podshohlarga qo'llanma"*, 1695) asarida harbiy masalalar, axloqiy omil haqida qimmatli fikrlarni ilgari suradi. Allomaning ta'kidlashicha, "sipoh juda tezkor, qahrli va shiddatli bo'lishi lozim. Bahodir, jasur va dovyurak kishi o'z davlati manfaati, tinchligi uchun jonini fido qilib, Vatanning boshiga biror kulfat tushganda, zudlik bilan qat'iy

qarorga kelishi, hayotini xavf ostida qoldirib, o'z maqsadiga erishmoq uchun jang maydonida o'zini ko'rsatishi talab etiladi. Urush paytida jang maydonida or-nomus uchun kurash ketayotgan bir vaqtda, mard kishi shuhrat haqida, jon-u mol to'g'risida o'ylamasligi kerak. Ularni keraksiz, beqadr bir narsa deb bilib, astoydil jang qilmog'i lozim. Chunki urush kunida shuhrat, mol-mulk orttirish yo'lida bezovta bo'lishdan ko'ra, jang tashvishi, kulfati to'g'risida o'ylash ming marta a'lodir".

Ma'lumki, jahon harbiy san'ati tarixida Amir Temurning oltmish askariga qarshi Xiva hokimi To'kal bahodirning ming kishilik qo'shini o'rtasidagi jang unutilmas voqea hisoblanadi. Amir Temur o'zidan o'n besh barobar ustun raqibini mag'lub etadi. Bu g'alaba Amir Temur va askarlarining ma'naviy-ruhiy kamoloti nihoyatda yuqori darajada bo'lgani bilan izohlanadi. Zero jismoniy kuch-quvvat yuksak ruhiy, ma'naviy kamolot bilan uyg'unlashsa, unga teng keladigan kuch-qudrat topilmaydi.

Zamonaviy urushlarda axloqiy omil tushunchasi dushmanga qarshi qurolli kurashda o'zini axloqiy kuch-qudrat sifatida namoyon etadigan xalq va armiyaning ma'naviy sifatlarining yig'indisini ifodalaydi. Qo'shinning axloqiy salohiyati jangovar mahoratini takomillashtirish, jangovar vazifalarni bajarish, huquqiy tartib, harbiy intizomni mustahkamlash, ona Vatanga, o'z xalqiga muhabbat va dushmanga nafrat tuyg'usini tarbiyalash, yangi jangovar texnika va qurol-yarog'ni o'zlashtirish jarayonida shakllantiriladi va mustahkamlanadi. Axloqiy kuch-qudrat tushunchasi harbiy qism va bo'linma, jamoa va shaxsga nisbatan munosabatda axloqiy omilning konkretlashishidir. Demak, axloqiy kuch-qudrat deganda qo'shin uchun zarur barcha ijobiy fazilatlarni tushunamiz. Bular harbiy burch, axloqiy mas'uliyat, jasorat, qahramonlik, fidoyilik, bajaruvchanlik, sabr-toqat, metin iroda, o'z harakatlarining muvaffaqiyatli bo'lishiga qat'iy ishonch, jangovar birodarlik, vazminlik, mardlik, vatanparvarlik, halollik, rostgo'ylik kabillardir.

Jangovar harakatlarda mustahkam harbiy intizom, buyruq va ko'rsatmalarni o'z vaqtda, tezkor va aniq bajarish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, komandirlar, shtablar, tarbiyaviy ishlar organlaridan shaxsiy tarkibning onglilik darajasini oshirishni, nizom va buyruqlarni, Vatanga qasamyod talablarini og'ishmay va qat'iy bajarilishini taqozo etadi. Jangovar vazifalarni bajarishda harbiy xizmatchilarning shaxsiy intizomligi – o'ziga nisbatan yuqori talabchanlik, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholash, jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishida shaxsiy mas'uliyatni anglash qobiliyati muhim o'rin tutadi. Bu yerda harbiy xizmatchilarning axloqiy ongi, ijtimoiy burchini anglashi, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari, harbiy faoliyati davomida belgilangan qoidalarga so'zsiz rioya qilishi muhim rol o'ynaydi. Sha'n, qadr-qimmat, adolat, o'zaro yordam, odob, askariy birodarlik, do'stlik kabi harbiy xizmatning axloqiy qoidalari haqidagi tasavvurlar jangovar vaziyatda harbiy xizmatchilarning intizomli xatti-harakatlarining axloqiy asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda harbiy sohadagi tub o'zgarishlar sharoitida jangovar qudratning komponentlaridan birining kuchsizligini boshqa hech narsa bilan to'liq qoplab bo'lmaydi. Shu bois Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida dunyoqarashi keng, axloqan yetuk, ona Vatanga va harbiy burchiga sadoqatli, kasbiy malakasi, jangovar mahorati yuqori, bir so'z bilan aytganda, o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan kadrlarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Endilikda komandirlar, tarbiyachi-ofitserlarning qo'shinlarda axloqiy barqarorlikni yuqori darajada ta'minlash bo'yicha faoliyati shaxsiy tarkib ongiga tizimli va maqsadli ta'sir ko'rsatish, ularning irodasi, fikri, tuyg'ularini axloqiy jihatdan yuksaltirishga yo'naltirilishi lozim. Zero tarbiyaviy ishlar to'g'ri va aniq tashkillashtirilsa, axloqiy kuch moddiy kuchga aylanadi.

M. NOMURATOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik kafedrasida dotsenti

MEHNAT YARMARKASI

BO'SH ISH O'RINLARI TAKLIF ETILDI

Farg'ona harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda Quva tumanidagi harbiy qismlarning birida mehnat yarmarkasi tashkil etildi.



Dastlab mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, shu jumladan harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va sa'y-harakatlar haqida ma'lumotlar berildi.

Yarmarkada tashkilotlar tomonidan harbiy xizmatchilarning 78 nafar oila a'zosiga 37 dan ziyod kasb va mutaxassislik turlari bo'yicha bo'sh ish o'rinlari taklif etildi.

Ishtirokchilarning 17 nafariga ularni doimiy ish bilan ta'minlash maqsadida yo'llanmalar berilgan bo'lsa, 3 nafar harbiy xizmatchining turmush o'rtog'i ta'lim muassasalariga o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilindi.

Adliya polkovnigi Sherzod SAIDOV,
Farg'ona harbiy prokurori

UCH AVLOD UCHRASHUVI



HAYOTIY BILIMLAR BOYITILDI

Termiz harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan prokuratura organlari faxriylari va xodimlari ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" o'tkazildi.

Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tadbirda so'zga chiqqan faxriylar o'zlarining xizmat faoliyatida erishgan yutuqlari va boy hayot tajribalari bilan o'rtoqlashib, Termiz harbiy prokuraturasining prokuror-tergov xodimlariga xalqqa sidqidildan xizmat qilish hamda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligi tamoyillari asosida harbiy xizmatni o'tash lozimligini, har bir xodim halol va adolatli bo'lishini hamda bilimlarini muntazam oshirib borish kerakligini ta'kidlashdi.

Yakunda faxriylarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Shundan so'ng tadbir ishtirokchilari va ularning oila a'zolari Surxon vohasining diqqatga sazovor maskanlaridan biri bo'lgan Termiz arxeologiya muzeyiga tashrif buyurib, u yerdagi nodir qo'lyozmalar va noyob eksponatlar bilan yaqindan tanishdi, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

G'iyosiddin RAHMONOV,
Termiz harbiy prokurorining katta yordamchisi

SAYYOR QABUL

Harbiy prokuratura organlari tomonidan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va pensionerlarning muammolarini o'rganish va hal etish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashda ko'maklashish maqsadida joylarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

ODAMLAR ROZILIGI YO'LIDA



Shunday tadbirlarning navbatdagisi Jizzax shahrida Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda o'tkazildi. Unda 300 nafarga yaqin harbiy, ularning oila a'zolari va fuqarolar qatnashdi.

Qabulda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori adliya polkovnigi B.Kudratxodjayev fuqarolar murojaatlarini tinglab, savollariga javob berdi. Shu kuni 103 ta murojaatning 21 tasi joyida hal etildi.

Xususan, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi 3 nafar harbiy xizmatchining turmush o'rtog'iga belgilangan tartibda subsidiyalar ajratilishi ta'minlandi. Qolgan 33 ta murojaat bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi. O'rganish va muddat talab etiladigan 49 ta murojaat nazoratga olingan holda mutasaddi tashkilotlarga yuborildi.

Sayyor qabul davomida xayriya tadbirlari amalga oshirilib, ko'makka muhtoj 4 nafar nogironligi bo'lgan shaxsga va 2 nafar vafot etgan harbiy xizmatchining oila a'zolariga kerakli maishiy texnikalar va boshqa buyumlar taqdim etildi.

Adliya podpolkovnigi Otabek HAYDAROV,
Jizzax harbiy prokurori

INSON QADRI UCHUN

O'RGANISHLAR VA NATIJALAR

Mahallalardagi ijtimoiy muhitni yaxshilash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlarga yordam ko'rsatish, yoshlar muammolarini manzilli hal etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Toshkent harbiy prokurori adliya polkovnigi A. Boboyev va Toshkent shahri Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i polkovnik Q. Shodibekov tomonidan Sergeli tumanida o'rganish ishlari olib borildi.



Jarayonda mahallalarda ijtimoiy ko'makka muhtoj aholi qatlamining turmush sharoiti bilan tanishildi va muammolarni joyning o'zida hal etishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, fuqaro S.A.ning xonadoni o'rganilib, sovuq kunlarda uyini isitish uchun maxsus zamonaviy suv isitish vositalari o'rnatildi. Mas'ullarga biriktirilgan yoshlardan Z.K.ga tikuvchilik bilan shug'ullanishi uchun tikuv mashinasi topshirildi.

Bundan tashqari, boquvchisini yo'qotgan K.Ch.ning murojaati ijobiy qanoatlantirilib, xonadonida ta'mirlash ishlari olib borildi, chiqindilar olib chiqilib, tartibga keltirildi.

Shuningdek, 277-maktabda tashkil etilgan sport to'garaklariga zarur sport anjomlari taqdim qilindi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

SARHISOB

Markaziy harbiy okrugning situatsion markazida joriy yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot yig'ilishi o'tkazildi.



Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev boshchiligida o'tgan videoselektor yig'ilishida qo'mondon o'rinbosarlarining qo'shinlar xizmati, jangovar tayyorgarlik, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishidagi hisobotlari tinglandi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda 2023-yilning o'tgan oylari davomida bajarilgan ishlar va kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalar muhokama etildi. Shuningdek, harbiy qism va muassasalarning komandirlari va o'rinbosarlarining faoliyati ham tahlil qilinib, muammoli masalalar yechimi

yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilish so'ngida okrug qo'shinlari qo'mondoni harbiy xizmatchilarga yo'l qo'yilgan kamchiliklardan to'g'ri xulosa chiqarishi va bartaraf etishi lozimligi bo'yicha bir qator vazifalarni ta'kidladi. Qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish hamda o'tkazilayotgan barcha ko'rik-tanlov va musobaqalarda yuqori o'rinlarni qo'lga kiritish asosiy maqsad qilib belgilab olindi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostidagi ijodiy tanlovlarning Shimoli-g'arbiy harbiy okrug bosqichi bo'lib o'tdi.

2023-yil 13-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida harbiy xizmatchilarda harbiy-vatanparvarlik, ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy ruh, milliy g'urur tuyg'ularini kuchaytirish, intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat va turizm, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi tomonidan qo'shma qaror imzolandi. Unga muvofiq, harbiy xizmatchilar o'rtasida "Tarix

bilimdoni", "Eng yaxshi harbiy qo'shiq ijrochisi", "Eng yaxshi yosh adib" hamda "Eng yaxshi yosh shoir" tanlovlari ikki bosqichda o'tkazilishi belgilangan.

Nukus garnizonida o'tkazilgan tanlovda harbiy qism va muassasalardagi ijodiy jamoalarning faol a'zolari o'zaro bilim va intellektual salohiyatda, shuningdek, san'atkorlik va shoirlik yo'nalishida bahslashib, kuchli raqobat muhitini yaratdi.

Harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy tariximiz, merosimizning asriy an'analarini o'rganish hamda tahlil qilish, iqtidorli harbiy xizmatchilarni aniqlash, mustaqil fikrlaydigan, o'zi tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni

IJODIY TANLOVLAR O'TKAZILDI



tayyorlash, erkin fikrlash tafakkurini yuksaltirish, innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarish, shu bilan birga har tomonlama rivojlangan, zamonaviy hunarlarni puxta egallagan harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadi ko'zlangan tanlovlar eng ilg'or yurt himoyachilarini saralashga ko'maklashdi.



Malakali hakamlar hay'ati tomonidan har bir ishtirokchining chiqishi odilona va xolisona baholandi.

G'olib va sovrindorlar tegishli diplomlar bilan taqdirlanib, 1-o'rinni qo'lga kiritganlar Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkaziladigan bosqich yo'llanmasiga ega bo'ldi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

O'QUV YIG'INI YAKUNLANDI

Angren garnizonidagi harbiy qismda "Armiya – vatanparvarlik va jasorat maktabi" shiori ostida o'tkazilgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'inining navbatdagi mavsumi yakunlandi.



"Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik yig'inining 3-mavsumida Toshkent viloyatining turli hududlaridan jalb etilgan yoshlarga malakali mutaxassislar tomonidan dasturlash, payvandlash, texnik xizmat ko'rsatish singari kasb-hunar sirlarini egallash yuzasidan qiziqarli mashg'ulotlar olib borildi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun biznes reja tayyorlash va banklardan imtiyozli kredit olish tartibi tushuntirildi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan o'tmishdagi buyuk sarkarda bobolarimiz jasorati va matonati haqidagi ma'lumotlar hayotiy misollar asosida yetkazildi. 10 kunlik yig'in so'ngida o'g'lonlarga viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi, Toshkent harbiy okrugi va boshqa tashkilotlar tomonidan sertifikatlar topshirildi.

Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati

BO'LINMALAR DALA-O'QUV MAYDONIDA

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlarining belgilangan tayyorgarlik rejasiga asosan, "Termiz" umumqo'shin poligonida Surxondaryo viloyatida joylashgan quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa bo'linmalari bilan aviatsiyaning intensiv uchish hududida dala chiqishi amalga oshirildi.



Harbiy okrug va Chegara qo'shinlari qo'mondonliklari hamkorligida bo'linmalarining jipsligi, jangovar tayyorgarligi hamda har qanday vaziyatda yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyati nazoratdan o'tkazilgan mashg'ulotlarda qo'mondonlik va boshqaruv punktlari, shuningdek asosiy kuchlardan alohida joylashgan zenit bo'linmalarining o't ochish pozitsiyalarini tanlashi, jihozlashi, ularni mudofaa etishi va qo'riqlashni tashkil etishi sinovdan o'tkazildi.

Komandir tomonidan berilgan topshiriqdan so'ng zenit hisoblari tomonidan qurilmalar o'qlanib, shartli jangga tayyor holatga keltirildi. Nishongacha bo'lgan masofalar, shamol tezligi va o'q otishga ta'sir etuvchi boshqa omillar qurilma komandiri va nishonga oluvchi tomonidan inobatga olinib, qurilmaga dastlabki kiritmalar o'rnatildi. Qisqa va uzun navbatlar bilan otilgan snaryadlar nishonlarni yakson qildi.

– Bo'linmalarining birdamlikda harakat qilishga, kuchli emotsional va stress holatlarida vazifalarni bajarishga o'rgatishga, kasbiy malaka va mahoratini yuksaltirishga xizmat qilgan dala chiqishi davomida jangovar ruh va axloqiy-ruhiy fazilatlarini mustahkamlashga e'tibor qaratildi, – deydi podpolkovnik Oybek Saidjahanov. – Musobaqa shaklida o'tgan mashg'ulot soha mutaxassislarining nazariy va amaliy bilimlari ortishi, yosh harbiy xizmatchilarning ko'nikmasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qism madaniyat markazida "Firibgarlikka qarshi kurashishga barchamiz mas'ulmiz" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

OGOHLIKKA CHORLOV



Unda Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi vakillari bugungi kunda firibgarlik jinoyatining turli ko'rinishlari paydo bo'lgani, ularning tuzog'iga tushmaslik uchun nimalarga e'tibor berish zarurligi haqida batafsil ma'lumot berdi. Toshkent shahri IIB bosh boshqarmasi Uchtepa tumani guruh rahbari podpolkovnik Dilshod Abdurahmonov fan va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi barobarida jinoyatchilikning turli ko'rinishlari paydo bo'layotgani haqida so'z yuritdi. Tadbirida huquqbuzarliklarning yangi shakllaridan ogohlikka undovchi videolavha namoyish etildi.

Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan davra suhbatida harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislaridan to'laqonli javob oldi. Bu kabi tadbirlar harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, firibgarlar qopqoniga tushib qolishning oldini olish va kibertahdidlardan ogoh bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

POLVONLAR BAHSI

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan harbiy qismda professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasi o'tkazildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi hamda qator tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan musobaqada Angren, Olmaliq va Ohangaron tumanidagi professional ta'lim muassasalaridan jami 14 ta jamoa 4 ta shart bo'yicha o'z kuch va mahoratini namoyish etdi. Ishtirokchilar tezkor savol-javob bahsi, avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, turnikda tortilish va estafeta yugurish bo'yicha o'zaro bellashdi.



"Tinchlik, taraqqiyot va farovonlik uchun!" shiori ostida o'tkazilgan musobaqa shiddatli va murosasiz o'tgani bilan bir qatorda yangi do'stlar ortirish, yagona maqsad sari birlashishga xizmat qildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Ohangaron tumanidagi 1-kasb-hunar maktabi jamoasi barcha raqiblarini ortda qoldirib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. G'olib va sovrindorlarga qimmatbaho va esdalik sovg'alar topshirildi.

EKSKURSIYA

HARBIY QISMDA YOSHLAR

Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan joylarda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari keng miqyosda o'tkazilmoqda.



Mudofaa vazirligiga qarashli Olmaliq shahridagi harbiy qismda davlat va jamoat tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan ana shunday tadbirlardan biriga hududda istiqomat qiluvchi bir guruh faol yoshlar jalb qilindi. Harbiy qismga kelgan mehmonlarga Vatan himoyachilari uchun yaratilgan sharoitlar yaqindan tanishtirildi. Ular e'tiboriga harbiy texnikalar, qurol-aslahalar namoyish etildi.

Faxriy qorovul, xizmat itlari va yong'in o'chirish xodimlarining ko'rgazmali chiqishlari yoshlarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va yoshlar "Zakovat", arqon tortish musobaqalarida o'zaro bellashdi.

Tadbirning kun tartibiga ko'ra, harbiy qism dala-o'quv maydoniga ekskursiya tashkil etildi. Unda mahalliy yoshlar



o'quv qurollarini to'liq va noto'liq qismga yig'ish, ruhiy barqarorlikni ta'minlash yo'lidan o'tish mashqlarini bevosita amalda bajargani ularga yanada shijoat, ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Bu kabi harbiy-vatanparvarlik tadbirlari xalq va armiya bir tan-u bir jon ekanidan dalolat beradi.

Kapitan Ahrorjon SAFARALIYEV

XOTIRA

Sharqiy harbiy okrugning bir guruh harbiy xizmatchilari yurt tinchligi yo'lida jonini fido qilgan harbiy xizmatchi Dilshod Asanov xonadonida bo'ldi.



Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari polkovnik Shuhrat Abdullayev, Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'yicha mutaxassisi Zulfiya Mansurova, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar dastlab qahramonning oila a'zolariga esdalik sovg'alarini topshirdi. Marhum o'g'lonning oila a'zolari bilan o'tgan samimiy suhbatda harbiy xizmatchilar qahramonning bolalik chog'larini, xizmat faoliyati, orzulari va kasbiga fidoyiligini esga oldi.

– Men Dilshodjonning yurtimiz tinchligi yo'lida qahramon bo'lganidan faxrlanaman. Bir ona farzandidan nima orzu qilgan bo'lsa, hammasini o'g'lim orqali ko'rdim, – deydi Dilshod Asanovning onasi Xolida Asanova.

Shu kuni harbiy xizmatchilar Farg'ona shahrida joylashgan "Mehr va saxovat" uyidagi bolajonlar holidan xabar oldi. Unda harbiy xizmatchilarning qo'l jangi chiqishlari, harbiy orkestr jamoasining kuy-qo'shiqlari bolajonlarda katta taassurot qoldirgan bo'lsa, mutasaddilar tomonidan ulashilgan sovg'alar olam-olam quvonch ulashdi.



Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

"ORZULARIMNI O'G'LIMDA KO'RDIM"

AMBLIPIYA YOKI “DANGASA KO‘Z”

Ko‘rishni yo‘qotish jarayoni patologiyani boshlanish yoshiga bog‘liq. Agar bu bolalik davrida sodir bo‘lsa, unda ko‘rish pasayishi juda tez bo‘lishi mumkin. Buni erta bosqichda aniqlash, tashxislash va davolash, ko‘rish qobiliyatini tiklash uning salomatligi va shaxs sifatida rivojlanishi uchun juda muhimdir.



Yosh bolalarda tug‘ma va orttirilgan ko‘z kasalliklariga ko‘zning dangasa ambliopiyasi, shuningdek strabizmus, anizometriya, miopiya (*miopiya*), miopiya (*gipermetropiya*), astigmatizm, tug‘ma katarakta va ularning birikmalari kiradi.

Ko‘rishning yo‘qolishi yoki og‘ishi atrofdagi dunyoni idrok etish jarayoniga katta ta‘sir qiladi. Ambliopiya (*dangasa ko‘z*) bola hayotining dastlabki yillarida ko‘rish tizimining to‘liq rivojlanmaganligi, masalan, strabizmus, ko‘zlar orasidagi sinish farqi yoki vizual stimulni qiyinlashtiradigan boshqa sabablar tufayli yuzaga keladi.

Ambliopiya miya ko‘zning vizual ma‘lumotlarini boshqa normaldan ko‘ra pastroq sifatli uzatadigan ko‘zdan, hatto “eng yomon, dangasa” ko‘zning barcha tuzilmalari sog‘lom bo‘lgan paytda ham e‘tiborsiz qola boshlaganligi sababli yuzaga keladi.

Shuningdek, ambliopiyaning sababi to‘r pardaga yorug‘likning yo‘qligi (*katarakta, shohpardaning kataraktasi, shishasimon tanadagi o‘zgarishlar yoki bir ko‘zda ko‘rishning buzilishi va boshqasida normal*) bo‘lishi mumkin. Ushbu holatlarning har qandayida sinish farqi miya vizual tasvirni ikkala ko‘zdan birga emas, balki har biridan alohida qabul qilishiga olib keladi. Bir ko‘z yetakchiga aylanadi, boshqa ko‘z esa ko‘rishda yetarli darajada ishtirok etmaganligi sababli vaqt o‘tishi bilan “o‘chib ketishi” mumkin. Bolada ikki ko‘zdan biri normal ko‘rishga ega bo‘lsa, bu jarayon ko‘pincha e‘tiborga olinmaydi.

Bolalikdagi ko‘rish muammolari keyinchalik bola rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin. Bolaning tanasi sezilarli o‘zgarishlarga duchor bo‘lganligi sababli optik tizim yuqori darajada plastiklikka ega va katta zaxiraga ega. Shuning uchun optik tizimning aksariyat patologiyalari juda yaxshi davolanadi. Dastlabki bosqichlarda vizual tizimni to‘liq tashxislash juda muhim.

Demak, ambliopiyaning eng muhim sharti uning oldini olish va o‘z vaqtida davolashni boshlashdir. Bu ko‘pincha bolalik davrida tashxisning murakkabligi va bolalardan shikoyatlarning yo‘qligi tufayli qiyinlashadi.

Ambliopiya zudlik bilan tuzatishni talab qiladi, aks holda, u vizual tizimga qaytarilmas zarar etkazishi mumkin. Bemor tibbiy yordamga qanchalik tez murojaat qilsa, yo‘qolgan ko‘rish qobiliyatini tiklash imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Ambliopiya odatda vizual stimulyatsiya deb ataladigan maxsus mashqlar kursi bilan davolanadi.

Ambliopiyaning davolashda eng samarali videokompyuter ko‘rishni tuzatish, videokompyuter avtotrening (*VKA*) zamonaviy kompleksidir. Bola rasmni tomosha qilayotganda, maxsus sensor ko‘z va miya ishi haqida ma‘lumot oladi.

Zamonaviy texnologiyalar oltin qoidani istisno qilmaydi – ambliopiya bilan davolash qaysi yoshda boshlanganligi muhimdir.

Yaqindan ko‘rish (*miopiya*) bu ko‘zning buzilishi bo‘lib, u masofani ko‘rish ravshanligining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Miopiyaning asosiy sababi ko‘z olmasining shakli o‘zgarishidir. Ushbu kasallik tufayli u cho‘ziladi va aylanadan ko‘ra ovalga o‘xshaydi. Natijada yorug‘likning sinishi buziladi, buning natijasida ko‘z olmasining o‘tadigan yorug‘lik nurlari to‘r pardaga emas, balki uning oldiga qaratiladi. Yaqindan ko‘rishning birinchi belgisi uzoqni ko‘rishning xiralashishi hisoblanadi.

Tug‘ma miopiyada muntazam davolash kurslari talab qilinadi.

Irsiy jihatdan agar ota-onaning ikkalasi ham yaqinni ko‘rmaydigan bo‘lsa, 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning yarmida miopiya paydo bo‘ladi. Biroq u erta bolalik davrida (*1 yoshdan boshlab*) rivojlana boshlaydi.

Ayrim hollarda 7-16 yoshdagi bolalarda ko‘z zo‘riqishidan paydo bo‘ladi: yaqin masofada uzoq va kuchli vizual stress, ish joyida yorug‘likning yetishmasligi, o‘qish va yozishda noto‘g‘ri turish, televizor va gadjetlarga haddan tashqari ishtiqoq.

Progressiv miopiya bolalik davrida paydo bo‘ladi. Erta tug‘ilgan chaqaloqlar va sog‘lig‘i yomon bo‘lgan bolalar (*tez-tez uchraydigan o‘tkir respiratorli infeksiyalar, gripp, pnevmoniya*) uning rivojlanishiga alohida xavf tug‘diradi. Bolalikda (*18 yoshgacha*) miopiyaning tuzatishning asosiy shakllari ko‘zoynak, kontakt linzalari va vizual tizim uchun maxsus o‘quv kursi – vizual stimulyatsiyadir.

Hozirgi vaqtda 18 yoshdan oshgan bemorlar uchun lazer texnologiyalaridan foydalangan holda jarrohlik operatsiyalari refraksiya xatolarini (*miopiya, astigmatizm, gipermetropiya*) tuzatish va ko‘rish keskinligini tiklash uchun qo‘llaniladi.

Uzoqni ko‘ra olmaslik (*gipermetropiya*) – yaqin masofadagi (*ko‘zdan 20-30 sm*) obyektlar tasvirining ravshanligi yomonlashadigan ko‘rishning buzilishi, uzoqni ko‘ra olmaslikning asosiy sababi ko‘z olmasining qisqargan shaklidir. Uzoqni ko‘ra olmaslik bilan shohpardadan o‘tadigan yorug‘lik nurlari retinaning orqasiga qaratiladi, buning natijasida tasvir noaniq idrok qilinadi.

Astigmatizm – shohparda yoki linzalarning tartibsiz shakli bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘zning sinishi patologiyasi. Natijada odam atrofdagi narsalarni egri, ba‘zan loyqa ko‘radi, to‘g‘ri chiziqlar egri ko‘rinadi, deformatsiyalangan shohparda yoki obyektiv orqali o‘tadigan yorug‘lik nurlari bir nuqtada emas, balki bir vaqtning o‘zida bir nechta to‘r pardaga qaratilgan. Bolalikda astigmatizm ko‘rishning pasayishiga, astenopiya shikoyatlariga, ba‘zan esa strabizmus va dangasa ko‘z sindromining sekin rivojlanishiga olib keladi – ambliopiya.

Strabizmus – bir vaqtning o‘zida bir yoki ikkala ko‘zning simmetrik fiksatsiya nuqtasidan og‘ish. Har bir ko‘zda 6 ta mushak mavjud bo‘lib, ular birgalikda harakat qiladi. Miya barcha 12 mushakni boshqaradi, shunda ikkala ko‘z ham to‘g‘ri koaksial yo‘nalishga qaraydi. Strabizmus, bu – bir yoki bir nechta ko‘z mushaklarining to‘g‘ri ishlamasligi. Natijada ko‘z g‘ayritabiiy ko‘rinishda bo‘ladi. Strabizmus bilan bolaning miyasi oddiy binokulyar ko‘rishda bo‘lgani kabi uni bitta uch o‘lchamli bilan taqqoslab bo‘lmaydigan ikkita rasmni qabul qila boshlaydi. Ikki marta ko‘payish sodir bo‘ladi. Miya bir tasvirni bostirish orqali tezda reaksiyaga kirishadi. Juda qisqa vaqt ichida miya qisilgan ko‘zdan ko‘rishning tuzatib bo‘lmaydigan bostirilishiga olib keladi va uni vizual jarayondan tashqariga chiqaradi. Natijada binokulyar ko‘rish buziladi.

Strabizmusni davolashda shifokor, bola va ota-ona tomonidan jiddiy harakatlar talab etiladi. Davolash bir necha haftadan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Shu bilan birga, bilish muhim: kasallik qanchalik tez aniqlansa va uni davolash boshlanadi, ko‘rish tezroq tiklanadi va bu davolanishning natijasi yaxshi bo‘ladi.

Katarakta, bu – linzalarning xiralashishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘z kasalligi. Ushbu kasallikdagi tasvir bulutli va loyqa bo‘lib, go‘yo ko‘z oldida sellofan plyonkasi yoki tumanli shisha turgandek bo‘ladi.

Kataraktani davolash tibbiy (*konsektiv*) va jarrohlik bo‘lishi mumkin. Dori-darmonlar bilan davolashda vitamin tomchilari buyuriladi. Ular linzalarda bulutni kechiktiradi, lekin uni yo‘q qilmaydi.

Bolalar kataraktasini davolashning asosiy va yagona usuli jarrohlikdir. Bu bulutli linzalarni sun‘iy ko‘z ichi linzalari (*sun‘iy linzalar*) bilan almashtirish usuliga asoslangan.

Binokulyar ko‘rishning buzilishi turli patologiyalarga xosdir. Bunday holda, o‘ng va chap ko‘z qovoqlaridan olingan tasvirlarning kombinatsiyasi yo‘q. Uch o‘lchovli tasvirning yo‘qligi tasvirlarning turli o‘lchamlari va ravshanligi, shuningdek ularning retina tekisligida siljishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Miya birlashtira olmaydigan ikkita tasvirni sezganda, ko‘zlardan biri ko‘rish harakatidan o‘chiriladi va ko‘rish monokulyar bo‘ladi. Bunday patologiyani tuzatish uchun ko‘zlarni birgalikda ko‘rishga o‘rgatish, shuningdek monokulyar ko‘rishga olib kelgan patologiyani tuzatish kerak.

Ambliopiya shubha qilingan har qanday bemor to‘liq ko‘z tekshiruvidan o‘tishi kerak. Bolalikdan boshlab bemorning to‘liq tarixini to‘plash kerak. Agar ular hali ham mavjud bo‘lsa, tibbiy yozuvlar olinishi kerak. So‘rash kerak bo‘lgan muhim savollar orasida shubhali ko‘zda ko‘rishning yo‘qolishi qachon boshlanganligi va bemorda refraktiv tuzatish, ko‘z travmasi, ko‘z patologiyasi, ambliopiyaning davolash va ko‘z jarrohligi tarixi bor-yo‘qligi kiradi. Ba‘zida bemor bu tarixdan xabardor bo‘lmashligi mumkin, shuning uchun ota-onalar, oila a‘zolari va boshqalarning kasallik tarixini kuzatish foydali bo‘lishi mumkin.

Har bir ko‘zning ko‘rish keskinligi alohida tekshirilishi kerak. Ko‘z qorachig‘i refleksini yorug‘lik ostida, ko‘zni esa tebranuvchi chiroq yordamida nisbiy afferent pupiller nuqsoni mavjudligini tekshirish kerak. Bemorlarda ko‘z ichi bosimi (*IOP*) tekshiriladi.

Ambliopiya shubha qilingan barcha bemorlar keng qamrovli tekshiruvdan o‘tishlari kerak. Ko‘zlarni tekshirganda, ko‘rishda ishtirok etadigan ko‘zning tuzilmalariga alohida e‘tibor berilishi kerak: shohparda, linzalar, to‘rparda va optik asab.

Ambliopiyaning baholashda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha testlarga rasmiy ko‘rish maydoni testi, optik kogerent tomografiya (*OCT*), fundus fotosurati va elektroretinogramma (*ERG*) kiradi. Agar optik yo‘lining siqilish lezyoniga shubha qilingan bo‘lsa, miya va orbitaning tasviri ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ambliopiyaning barcha shakllari ko‘pincha ambliopik ko‘zning vizual rivojlanishini yaxshilash uchun ambliopik bo‘lmagan ko‘zni vizual jazolashni talab qiladi. Vizual jazoning eng keng tarqalgan shakli bu ambliopiyasiz ko‘z patchidir. Kuniga ambliopik bo‘lmagan ko‘z patchining vaqti ambliopiyaning og‘irligiga qarab o‘zgaradi. Amaliyotchilar ko‘pincha ikki soat, olti soat va ba‘zan butun vaqt davomida yamoq qo‘yishadi. O‘qish, rasm chizish, tikish, jumboqlar va kichik narsalar bilan

ishlash, televizor tomosha qilish, videoo‘yinlar, kiyinish kabi vizual faoliyat foydali bo‘lishi mumkin, chunki bemor ambliopik ko‘zdan foydalanishga majbur bo‘ladi.

Pediatrik ko‘z tadqiqot guruhi 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bemorlarda ambliopiyaning davolash 13 yosh va undan katta yoshdagi bemorlarga qaraganda ancha samarali ekanligini aniqladi.

Okklyuziv terapiyadan o‘tgan bolalarning kamida 75 foizi ko‘rish qobiliyatini yaxshilagan. Biroq bolalarning kamida 50 foizi vaqt o‘tishi bilan ko‘rish keskinligining biroz pasayishiga duch keladi. Eng yaxshi natijalar erta yoshda yuborilgan bolalarda kuzatiladi. Biroq ko‘p hollarda, ko‘plab bolalar ulg‘aygan sari haqiqiy tasvirlar biroz o‘zgarishi mumkin. Davolanish bilan bemorlarning 70 foizdan ortig‘i 12 oy ichida ko‘rishning sezilarli yaxshilanishini sezadi. Lekin davolanishdan keyin ham ko‘rish qobiliyati bir oz yo‘qolishi mumkin.

Bolalarning doimiy monitoringini tashkil etish, ular bilan ko‘zni davolash va mustahkamlash tartib-qoidalari bolalar bog‘chasi, oromgohlar yoki maxsus tibbiyot muassasalari kabi ixtisoslashtirilgan muassasa doirasida qulay tarzda amalga oshiriladi.

Bunday muassasalarda o‘ziga xos profilaktika va davolash quyidagicha bo‘ladi: to‘yimli, oziq-ovqat; jismoniy faoliyat uchun ma‘lum vaqt, bolaning ko‘rish qobiliyatiga yukni dozalash, filmlarni uzoq vaqt ko‘rishga ruxsat bermaslik, unga kompyuter va gadjetlardan tez-tez foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik; ko‘z gimnastikasini bajarish; agar bolalarda gipermetropiya, miopiya yoki boshqa ko‘rish buzilishi bo‘lsa, terapevtik mashqlar metodologiyasini individual tuzish va tibbiy nazoratni amalga oshirish; ko‘zning yuqumli kasalliklari, agar kerak bo‘lsa, boshning shikastlanishi va ko‘karishlari profilaktikasini amalga oshirish.

Jismoniy mashqlar paytida kichik bemorlar turli, ayniqsa qizil rangni ko‘k va yashil ranglar bilan birgalikda yaxshi ajrata olishlari kerak. Trixromat testlari davolanishning oxiriga qadar ko‘rish keskinligi 0,9-1,0 ga yetgan bo‘lishi kerak.

Amalga oshirilgan tadbirlar asosida bunday ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida kuzatishlar, bolalarda turli xil ko‘z kasalliklarini davolash usullari, mashqlari, simulyatorlari va kurslari ishlab chiqiladi.

Ambliopiyaning eng muhim sharti uning oldini olish va o‘z vaqtida davolashdir. Boladagi vizual tizimning rivojlanishi bunga bog‘liq va ko‘p hollarda jarrohlik davolash zaruratidan qochadi. Noxush patologiyalarning bola tanasiga ta‘sirini kamaytirish uchun kasallikni erta bosqichda aniqlashga harakat qilish va darhol davolanishni boshlash kerak. Bu bolalik davrida tashxisning murakkabligi va shikoyatlarning yo‘qligi tufayli ko‘pincha qiyin bo‘ladi.

A. SHARAPOVA,
oftalmolog t.f.n. dotsent.
Tibbiy xizmat podpolkovnigi
F. QURBONOV.
Tibbiy xizmat kapitani
A. SOBIROV



OVQATDAN ZAHARLANISH

Ommaviy axborot vositalarida aholi orasida oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish holatlari qayd etilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar berilmoqda.

Ovqatdan zaharlanish oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va iste'mol jarayonidan kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlar bilan zararlanishi natijasidir. Boshqacha aytganda, kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar yoki zaharli moddalar bilan ifloslangan ovqatni iste'mol qilish natijasida kelib chiqqan kasallikka ovqatdan zaharlanish deyiladi.

Ovqatdan zaharlanish ikki xil bo'ladi: mikroblar bilan bog'liq bo'lgan va mikroblarga aloqasi bo'lmagan zaharlanish. Mikroblar bilan bog'liq bo'lgan zaharlanishlar ham o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi. Ovqat toksikoinfeksiyalari, ya'ni kasallik qo'zg'atuvchi tirik mikroblar (*ichak tayoqchalari, salmonella, protey*) bilan zararlangan ovqatlarni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadi. Ovqat intoksikatsiyalari esa mikroblar chiqargan toksinlar bilan zararlangan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish natijasida sodir bo'ladi.

Ovqat toksikoinfeksiyalari insonda oshqozon-ichak tizimi shilliq qavatining yallig'lanishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, ich ketishi va tana haroratining ko'tarilishi bilan kechishi mumkin. Ovqat toksikoinfeksiyalarining kelib chiqishiga ko'p hollarda ichak bakteriyalari oilasiga mansub bo'lgan salmonella mikroblari bilan zararlangan go'sht, baliq, konserva, sut va qandolat mahsulotlarini iste'mol qilish sabab bo'lishi mumkin. Go'sht mahsulotlarining salmonella mikroblari bilan zararlanishi qoramol, parranda va boshqa hayvonlarning hayoti mobaynida kasalga chalinishi yoki jarohatlanishi natijasida sodir bo'ladi. Salmonella mikroblari jarohat olgan yoki kasallangan hayvon ichaklaridan limfa va qon tomirlari orqali o'tib ularning muskullarida to'planishi mumkin. Zo'rma-zo'raki so'yilgan bunday qoramol, parranda va boshqa hayvonlarning go'shti xavfli va iste'molga yaroqsiz hisoblanadi. Qoramol, qo'y va echkilar so'yilgandan keyin, tana qismlarini bo'laklarga bo'lish va kesish paytida, bexosdan ichak qismining shikastlanishi natijasida, yoki go'sht mahsulotlarini tashish va saqlash qoidalari qo'pol ravishda buzilganda ham salmonella mikroblari bilan zararlanadi. Bundan tashqari salmonella infeksiyasi yaxshi pishirilmagan va ichak mikroblari bilan zararlangan tovuq va o'rdak go'shtlarini va ularning tuxumlarini iste'mol qilish natijasida ham kelib chiqadi. Salmonella mikroblari oshxonalariga ovqat ilinjida kirgan sichqon va kalamushlar, pashshalar orqali ham oziq-ovqatlarning zararlanishi va zaharlanishini keltirib chiqarishi mumkin.

Kasallik qo'zg'atuvchi ichak tayoqchalari va protey mikroblari asosan tuproqda, oziq-ovqatlarda va suvda uchraydi, ularning tashuvchisi asosan odamlar hisoblanadi. Tayyor oziq-ovqatlarga ichak tayoqchalari yaxshi yuvilmagan qo'l, ifloslangan kiyim-kechaklar va yaxshi yuvilmagan idish-tovoqlar orqali tushadi. Bu kasallikni tarqalishida pashsha eng

asosiy xavf tug'diruvchi manba hisoblanadi, chunki u o'z oyoqlari bilan hojatxonalaridagi mikroblarni 1,5 km. uzoqlikdagi maydonga tarqatishi mumkin.

Stafilokokkdan zaharlanishda asosiy kasallik manbasi angina, konyunktivit bilan kasallanganlar va qo'llarida yiringli yarasi bor odamlar hisoblanadi. Ular qo'llari yoki so'laklari orqali oziq-ovqatlarni shu mikroblar bilan zararlaydilar va natijada ovqatdan zaharlanish holatlari kelib chiqishi kuzatiladi. Stafilokokkdan zaharlanishlarga mastit kasaliga chalingan qoramollardan sog'ib olingan sut mahsulotlari va kremli qandolat mahsulotlari ham sabab bo'lishi mumkin. Stafilokokkdan zaharlanishlarda yashirin davri 2-3 soat, ba'zi hollarda esa 6 soatgacha davom etishi kuzatiladi. Zaharlanish asosan yurak yetishmovchiligi, sovuq ter chiqishi va holsizlik bilan davom etishi mumkin. Ikki va uch kun ichida sog'ayish yuzaga keladi.

Mikroblarga aloqador bo'lmagan zaharlanishlarga tabiatan o'z tanasida zaharli moddalarga ega bo'lgan baliq mahsulotlarini, o'simliklarni hamda zaharli moddalar bilan zararlangan mahsulotlarni iste'mol qilish sabab bo'ladi. Iste'molga yaroqsiz qo'ziqorinlarni tatib ko'rish va ularni ovqat ratsioniga kiritish og'ir zaharlanishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlariga rux va qo'rg'oshin kabi yot moddalarni tushishi ham ommaviy zaharlanishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, sirlanmagan chelaklarda kompot va tuzlangan sabzavotlarni saqlash juda ham xavflidir. Chunki rux tuzli muhitda eriydi va buning oqibatida zaharlanish yuzaga kelishi mumkin. Oziq-ovqatlarni saqlashda zaharli dorilardan yoki kimyoviy moddalardan bo'shagan idishlarni zinhor ishlatmaslik lozim.

Ovqatdan zaharlangan bemorga birinchi yordam ko'rsatishda kasallik belgilarining uch sifatiga e'tibor berish, unga birlamchi tashxis qo'yishga va maqsadga yo'naltirilgan davo choralarini qo'llashga yordam beradi. Bemorda ich ketishi, ko'ngil aynishi va tana haroratining ko'tarilishi kuzatilsa ovqat toksikoinfeksiyasiga gumon qilinadi. Ovqatlanishdan so'ng 4 soat ichida ko'krak ostida o'tkir og'riq, qusish, bosh aylanishi, tezda holdan ketish kuzatilsa stafilokokk toksinlaridan zaharlanishga gumon qilinadi. Agar bemorda ko'rish pasayishi, asab-falajlik o'zgarishlari, yutinish qiyinlashuvi, nutq buzilishi

va boshqalar kuzatilsa botulizm kasalligiga gumon qilinadi. Ovqatdan zaharlanish holatlarida bemorni tez fursatda davolash muassasasiga yetkazish talab etiladi. Tez tibbiy yordam kelgunga qadar yoki dala sharoitida bemorga birinchi yordamni ko'rsatish, kasallikning og'ir oqibatlariga olib kelishining oldini oladi. Bemorni boshi oldinga egilgan holda stulga o'tirg'izish va ko'proq suv ichirish lozim bo'ladi. Oshqozonini yuvish uchun 2 foizli choy sodasi qo'shilgan suvni (1 litr suvga 20 g.) ko'p miqdorda ichirish va toza suv chiqqunga qadar qayt qildirish lozim. Zaharlanishni kamaytirish maqsadida 5-6 dona faollangan ko'mir tabletkasini ichirish tavsiya etiladi. Tibbiyot xodimlari tomonidan bemorning ahvolini hisobga olgan holda qilingan muolajalar natijasida bemor hayotini saqlab qolish mumkin bo'ladi.

Ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish uchun avvalambor, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim:

- * hojatdan so'ng va ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish odat tusiga kirishi kerak;
 - * maxsus idishlarda chiqarilgan mineral suv yoki qaynatilgan suv ichish;
 - * ochiq suv havzalarida cho'milganda suv yutmaslik;
 - * ovqat tayyorlashda sifatli mahsulotlardan foydalanish;
 - * tayyor ovqat va ovqat qoldiqlarini ochiq holatda, ishlatilgan idish-tovoqlarni yuviqsiz qoldirmaslik;
 - * oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, ishlov berish, tayyorlash, tarqatish mobaynida pishirilgan va pishirilmagan mahsulotlarni aralashtirmaslikka e'tibor berish lozim;
 - * oshpaz xodimlarni o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash;
 - * kasallik mikroblarining tashuvchisi bo'lgan pashshalar va suvaraklar, sichqon va kalamushlar ko'payishiga yo'l qo'ymaslik;
 - * axlatlarni qopqog'i zich yopiladigan idishlarga yig'ish, uni kunda kamida bir marotaba bo'shatib, dezinfeksiya qilish;
 - * uxlash xonalari, oshxona va hojatxona derazalaridan pashshalar kirmasligi uchun maxsus to'r yoki doka tutish lozim.
- Shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'rtasida tushuntirish, sanitariya va oqartuv ishlarini olib borish lozim.

**Tibbiy xizmat podpolkovnigi
T. ESHQOBILOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-
epidemiologiya nazorat markazi
bo'lim boshlig'i.
B. AHMEDOV, shifokor**



XALQARO MUSOBAQA

KO'PKURASH

MERGANLARIMIZ 3-O'RINI EGALLADI

Belarus Respublikasida sportning 20 turi bo'yicha II MDH o'yinlari bo'lib o'tdi.



Ushbu o'yinlar dasturida Minsk shahrida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqada 4 nafar yosh sportchidan iborat O'zbekiston terma jamoasi mamlakatimiz sha'nini himoya qildi. Uch nafar hamyurtimiz musobaqaning 10 metr masofadan pnevmatik to'pponchadan o'q uzish shartida uchinchi o'rinni egalladi.

Quvonarli, jamoa tarkibida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Kosonsoy tumani o'quv sport-texnika klubi sportchisi Sodiqjon Abdullayev ham bor.

Shuningdek, terma jamoaning yana bir a'zosi – "Vatanparvar" tashkilotining Toshkent viloyati texnik va amaliy sport turlari markazi sportchisi Gulbonu Qambarbekova pnevmatik miltiqda 10 metr masofadan o'q uzish shartida 20 nafar da'vogar orasida 6-o'rinni qo'lga kiritdi.

BIRINCHI BOSQICH YAKUNLANDI

Respublikamiz bo'ylab O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan "Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!" shiori ostida o'tkazilgan "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining tuman (*shahar*) bosqichi yakuniga yetdi.



Yoshlar ishlari agentligi, Mudofaa vazirligi, "Vatanparvar" tashkiloti hamda bir qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 208 ta tuman (*shahar*)larda o'tkazilgan ushbu musobaqada professional ta'lim muassasalarining 95 232 nafar o'quvchi-yoshi ishtirok etdi.

Yoshlar "Tezkor savol-javob", "AKM" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish, "Turnikda tortilish", "Estafeta yugurish" hamda "Pnevmatik quroldan o'q otish" shartlari bo'yicha bellashdilar.

Musobaqaning hududiy bosqichi joriy yilning 15–20-avgust kunlari o'tkazilsa, respublika bosqichi 25-avgust kuni bo'lib o'tadi.

Eslatib o'tamiz, "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasini o'tkazishdan asosiy maqsad, ta'til davrida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ular orasida Vatan himoyasi sharafli burch ekanligini targ'ib qilish hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida xizmat qilishga tayyorlab borish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

ARMIIYA SPORTI

Qo'l jangi – kurash elementlari hamda qo'l va oyoqlar bilan jismoniy kuchni ishlatish orqali dushmanga yaqin jangda zarba berish, sovuq va o'qotar qurollarni qo'llash usullarini o'z ichiga oladi. Shu bois armiyada qo'l jangi harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy imkoniyatlarini oshirish uchun ommalashgan.

ASKARLARNING QO'L JANGI MUSOBAQASI

Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar ruhni, jamoaviy jipslikni ta'minlash, akrobatik usullar, o'tochar va sovuq qurollardan mohirlik bilan foydalanish bo'yicha ko'rgazmali qo'l jangi musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqaning qism komandiri kubogi uchun bosqichi jangovar ko'rgazmaga aylanib, kuchli raqobat va shiddat bilan kechdi.

Jamoalar jamoaviy jipslikni, kuch, shijoat va mahoratni ko'rgazmali tarzda namoyish eta oldi. Ayniqsa, akrobatik usullarda namoyish etilgan ko'rgazmalar, pichoq jangi va qurol bilan bajarilgan murakkab, dadil harakatlar hech kimni bee'tibor qoldirmadi. Bellashuvda muddatli harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari hay'at a'zolari va kuzatuvchilarda katta taassurotlar qoldirdi.

Ko'rgazmali chiqishlari maydonga kirib kelishi tanlangan qo'shiq, kiyim rusumi, aktyorlik mahorati, ko'rgazmaga yangilik kiritgani, akrobatik usullardan foydalangani, oyoq va qo'l bilan berilgan zarbalarning samarasi kabi baholash mezonlari ishtirokchilarning yuqori ballarni qo'lga kiritishida raqobatni kuchaytirdi.

Jamoalarning mashqlarni bajarishda sinxron tarzda, tez, aniq va to'xtovsiz bajarganiga qarab, ularga qo'yilgan ballar yuqorilab bordi.

Faxrli o'rinlarga sazovor bo'lgan jamoalar kubok, faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Jamoalarni ko'rgazmali chiqishlarga tayyorlagan muddatli harbiy xizmatchilar qo'l soatlari bilan mukofotlandi.



Kichik serjant Abdullajon UMARALIYEV
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Mamlakatimizda harbiy xizmatchi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning o'rni va rolini oshirish, iste'dodlarini namoyon qilishlari bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

QO'MONDONLIKDA G'OLIBLAR ANIQLANDI



Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligida faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida "To'maris izdoshlari – 2023" tanlovining qo'mondonlik bosqichi o'tkazildi. Unda 6 ta jamoa birinchi o'rin uchun quyidagi shartlar bo'yicha bellashadi: To'maris siymosini gavdalantirgan holda tanishtirish; AK-74 avtomatidan amaliy otish; yaradorlarni



jang maydonidan olib chiqish; 800x400x200x100 metr masofalarga estafeta yugurish; erkin uslubda 60 metr masofaga suzish; dala sharoitida mazali taom tayyorlash.

Tanlov yakunida g'olib bo'lgan harbiy qism "To'maris"lari Mudofaa vazirligi miqyosida bo'lib o'tadigan musobaqaga yo'llanma olishdi. Musobaqaning shaffof va xolis o'tishini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'ati turli soha mutaxassislaridan tayinlandi.



Taqdirlash marosimida qo'mondon o'rinbosari so'zga chiqib, afsonaviy To'maris izdoshlari lo'bar, maftunkor, oqila harbiy xotin-qizlarga samimiy tilaklarini bildirdi. "Bu qizlarimiz erkak harbiy xizmatchilardan aslo qolishmaydi. Tez orada bo'lib o'tadigan Mudofaa vazirligi bosqichida ham yuqori natijalarni qayd etib, qo'mondonlik sha'nini munosib himoya qilishlariga ishonaman", deya o'z so'zini yakunladi.

BATAFSIL MA'LUMOT BERILDI

Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismlarning birida yong'in xavfsizligi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazildi. Unda harbiy qism shaxsiy tarkibiga hamkorlikdagi favqulodda vaziyatlar bo'linmalarining maxsus yong'in o'chirish texnikalarining taktik-texnik imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, yong'inga qarshi birlamchi kurashish vositasi – o't o'chirgich turlari, aynan qanday holatda ulardan foydalanish tartibi haqida batafsil ma'lumot berildi.



Mashg'ulotning amaliy qismida harbiy xizmatchilarga shartli yong'inni o'chirish mashqi ko'rgazmali tarzda namoyish etildi. Bu kabi profilaktik tadbirlar qo'shinlarda davom etib, yong'in xavfsizligi qoidalari talablari targ'ib qilinmoqda.

Podpolkovnik O'ktam XAITOV

MUDOFAAGA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTLARIDA

Mamlakatimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bunday ezgu amallar O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Peshku tumani o'quv sport-texnika klubi faoliyatida ham o'z ifodasini topmoqda.



QULAY IMKONIYATLAR YARATILGAN

Albatta, bunday ishlar ko'lamini yaxshilash maqsadida klub a'zolari tuman hokimligi, mudofaa, xalq ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda targ'ibot tadbirlarini faol tarzda olib bormoqda.

– Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, tumanimiz yoshlarini vatanparvarlik va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarini zamon talabi asosida tashkil etishdan iboratdir, – deydi O'STK boshlig'i Abdulla To'yev. – Shu bois ham yoshlar ishtirokida turli ko'rinishdagi sport musobaqalari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam ravishda tashkil etilmoqda.

Shuningdek, klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yish borasida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Shu kunlarda klub qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" va "Duatlon" kabi sport seksiyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, O'STKda yoshlar va aholi orasida "Yo'l harakati qoidalari" borasidagi targ'ibot va tashviqot ishlari ham namunalari ravishda tashkil etilmoqda. Bu borada viloyat IIB JXX YHX boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda turli tadbirlar, uchrashuvlar hamda suhbatlar o'tkazilmoqda. O'z navbatida, bunday tadbirlar har bir yo'l harakati ishtirokchisidan yo'llarda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda harakat qilishga undamoqda.

Ayni paytda O'STKda nomzodlar "B", "BC" toifali haydovchilik kurslarida ta'lim olmoqda. Ta'kidlash o'rinishi, malakali haydovchilar tayyorlash uchun tashkilot yetarli o'quv-moddiy bazaga ega. Xususan, avtodrom, zamonaviy o'quv avtomobillari va boshqa mavjud imkoniyatlar bo'lajak haydovchilar malakasini oshirishga xizmat qilmoqda.



Dunyoning eng mitti davlatlari

Sayyoramizning turli qit'olari bo'ylab 252 taga yaqin davlat mavjud. Ayrim davlatlar yer sharining katta qismini egallagan. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi Yevroosiyaning ikkidan bir qismida joylashgan. Biroq ulkan hududni egallagan davlatlar bilan bir qatorda, mitti mamlakatlar ham mavjud. Ularni dunyo xaritasidan izlab topish ham qiyinchilik tug'diradi. Quyida sizni dunyodagi eng mitti davlatlar bilan tanishtiramiz.

VATIKAN

Vatikan – maydoni bor yo'g'i 0.44 kvadrat kilometrni tashkil etadigan dunyodagi eng mitti davlat (*solishtirish uchun: Samarqand shahrining umumiy maydoni 120 kvadrat kilometrga teng*). Mamlakat aholisi 2019-yil holatiga ko'ra, 805 nafarni tashkil etadi. Vatikan – bu o'z ramziy bayrog'i, gerbi, pochta, temiryo'li va o'z hukumat tarkibiga ega mustaqil shahar-davlat. Hukumat tepasida barchaga ma'lum Rim Papasi turadi.

Vatikan nomi, uzoq o'tmishda Monte-Vatikano tepaligi nomiga qo'yilgan (*Vatikan o'sha tepalikda joylashgan*). Davlatda ikkita davlat tili amal qiladi – lotin va italyan tillari.

MONAKO

Monako – mitti davlatlar reytingida ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu mitti-knyazlik yaqingacha bor yo'g'i 1.9 kvadrat kilometr maydonni egallagan edi. Biroq dengiz suvlarining quritilishi evaziga mamlakat maydoni 2.02 kvadrat kilometrga kengaydi. Mamlakat aholisi 2019-yil holatiga ko'ra, 37 550 kishini tashkil etadi.

Monako Italiya va Fransiya chegarasi kesishgan hududda joylashgan. Mamlakatning davlat tili deb, fransuz tili tan olingan.

NAURU

Nauru – Tinch okeanidagi Korall orolida joylashgan mitti davlat. Mamlakatning poytaxti yo'q. Uning maydoni 21.3 kvadrat kilometrga teng. Mamlakat aholisi 10 500 kishi atrofida. Nauru o'ziga yarasha jozibali mamlakat. Biroq u yerdagi turizm ichimlik suvi tanqisligi sababli rivojlanmagan.

Orol 10 500 ga yaqin aholi bo'lib, ularning asosiy qismi Yaren shahrida istiqomat qiladi. Nauru armiyaga va poytaxtga ega bo'lmagan dunyodagi yagona mamlakat hisoblanadi.

TUVALU

Tuvalu – maydoni 26 kvadrat kilometrga teng bo'lgan davlat. Mamlakat 7 ta orolchadan iborat. Aholiga ega yagona orol Funafuti, deb ataladi.

Ushbu mitti davlatning poytaxti – Funafuti shahri. Orol 1000 kishi istiqomat qiladi. Mamlakat konstitutsion monarxiya boshqaruviga asoslangan. Reglamentga asosan, davlat rahbari Buyuk Britaniya qiroli hisoblanadi.

Bu yerda tez-tez bo'ron va to'fonlar bo'lib turadi. Yer osti boyliklarining yo'qligi sababli ushbu mamlakat dunyoning eng kambag'al davlatlari safiga kiradi.



SAN-MARINO

San-Marino – Janubiy Yevropada joylashgan mitti davlat. Mamlakatning nomi III asrda uning asoschisi sharafiga qo'yilgan. Davlat 61 kvadrat kilometr maydonga ega va unda 32 000 ga aqin aholi istiqomat qiladi. San-Marino rivojlangan va boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Chunki u yerda turizm biznesi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatning milliy valyutasi yevro sanaladi.

LIXTENSHTEYN

Lixtenshteyn – maydoni 160 kvadrat kilometrga teng bo'lgan, Markaziy Yevropada joylashgan knyazlik. Ushbu davlat Avstriya va Shveysariya bilan chegaradosh. Mamlakat poytaxti – Vadus shahri. Mamlakatda 33 000 aholi istiqomat qiladi. Knyazlikning rasmiy tili – nemis tili. Davlatning milliy valyutasi shveysar franki hisoblanadi.

Lixtenshteyn o'zining tog'-chang'i dam olish maskanlari va boshqa ko'plab diqqatga sazovor joylari bilan dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qiladi.

MARSHAL OROLLARI

Marshal orollari – bu Mikroneziyada joylashgan mitti davlat bo'lib, uning umumiy maydoni 181.3 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Davlat poytaxti – Madjuro shahri. 2019-yil holatiga ko'ra, mamlakat aholisi 58 461 kishidan iborat. Mamlakat 5 ta oroldan iborat bo'lib, u yerdagi havo harorati yil davomida o'rtacha 27 daraja issiq bo'ladi.

Mamlakat aholisi o'zining mehmondo'stligi bilan olamga tanilgan.

SENT-KITS VA NEVIS

Sent-Kits va Nevis – 261 kvadrat kilometr maydonga ega federativ davlat. Ushbu mamlakatda ikki yirik shahar mavjud: Baster va Charlstaun. Baster Sent-Kitsda joylashgan, Charlstaun bo'lsa, Nevisda joylashgan. Mamlakatning asosiy diqqatga sazovor maskani – bu Qizil dengiz va uning noodatiy rangdagi qirg'oq qumlari.

Yuqorida qayd etilgan ikki orolda 52 500 nafar aholi istiqomat qiladi. Mamlakat iqtisodiyotining asosini rivojlangan turizm sohasi tashkil etadi. Undan tashqari, bu yerda qishloq xo'jaligi va bank biznesi ham yaxshi rivojlangan.

KUK OROLLARI

Kuk orollari – Tinch okeanning janubiy qismida joylashgan. Umumiy maydoni 230 kvadrat kilometr bo'lib, 20 mingdan ortiq aholiga ega. Ko'pchilik mitti davlatlar singari Kuk orollarining ham iqtisodiyoti asosini rivojlangan turizm tashkil etadi.

MALDIV OROLLARI

Mashhurlarning eng sevimli dam olish maskani va Osiyodagi eng mitti davlat. Umumiy maydoni 300 kvadrat kilometrga yaqin bo'lib, 512 037 nafar aholi istiqomat qiladi. Mamlakat poytaxti – Male shahri. Ushbu mamlakatning iqtisodiyotini ham rivojlangan turizm tashkil etadi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI